



YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-fevral kuni yoshlar bandligini ta’minlash chora-tadbirlari bo’yicha yig’ilish o’tkazdi.

Davlatimizning kuchli ijtimoiy siyosatida yoshlar eng ustuvor yo’nalish. Ularga sifatli ta’lim va kasb berish, in-tilishlarini qo’llab-quvvatlash doimiy e’tiborda. Har bir mahallada “Yoshlar bandligi dasturi” amalga oshirilmoqda, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Madaniyat karvoni” tadbirlari va turli festivallar o’tkazilmoqda.

Shu yil 21-fevralda Prezident farmoni bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiya-sini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Dasturda yoshlar muammolarini hal qilish va sa-lohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo’lgan kasb-hunarga o’qitish orqali bandligini ta’minlash bo’yicha ko’plab vazifalar belgilangan.

Bu yil “yoshlar balansi” bo’yicha 925 ming yigit-qizning bandligini ta’minlash zarur. Shuningdek, kollej, texnikum va oliy o’quv yurtlarini 300 ming yosh bitiradi.

Yig’ilishda ularni ishga joylashtirish, zamonaviy kasb-hunarlar va tadbirkorlikka jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Avvalo, yoshlarning biznes bilan shug’ullanishiga qo’shimcha imkoniyatlar yaratilishi aytil-di. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan

kreditlarning kamida 40 foizi shunga yo’naltiriladi. “Yosh tadbirkor” tan-lovlari o’tkazilib, g’olib bo’lgan biznes loyiha va g’oyalari egalari xorijiy davlat-larga malaka oshirishga yuboriladi.

Mutasaddilar yangi sanoat loyi-halarida 100 ming, xizmatlar sohasida 150 ming, ish o’rinlarini legallashtirish va o’zini o’zi band qilish orqali 200 ming nafar yigit-qiz bandligini ta’min-lash to’g’risida axborot berdi.

Hozirgi kunda yoshlarbop istiqbol-li soha bu raqamli texnologiyalar. Shu bois, Davlat dasturida “Har bir mahal-ladan ikki nafar dasturchi” loyihasi bel-gilangan. Shuningdek, bu yil axborot texnologiyalari sohasida 70 ming yoshni band qilish rejalashtirilgan.

Buning uchun qobiliyatli yigit-qizlar-ni aniqlab, IT-kasblar va xorijiy tillarni o’rganishiga ko’maklashish zarurligi ta’kidlanib, hokimlarga tegishli ko’rsat-malar berildi.

Yoshlar ishlari agentligining “Ibrat farzandlari” loyihasi orqali 1 million na-far o’g’il-qiz xorijiy tillarga bepul o’qi-tiladi. Maktablardagi bo’sh sinf xonalari chet tili repetitorlari va o’quv markazlari uchun bepul ijaraga beriladi. Qishloq joylaridagi o’quvchilarning o’zlashtiri-shi yuqori bo’lgan 100 ta xususiy o’quv

markazining ijara xarajatlari 6 oygacha kompensatsiya qilinadi.

Shuningdek, xususiy kurslarda o’qib, “C-1” sertifikatini olgan yoshlarga o’qish xarajatlari, nemis, fransuz, ko-reys, yapon va xitoy tillari bo’yicha esa “B-2” darajasi sertifikatini olish xarajat-lari qoplab beriladi. Yana bir yangilik — bu yil nafaqat sertifikat olishdagi im-tihon xarajati, balki olti oylik o’qish puli ham to’lab beriladi.

“Ustoz” loyihasi doirasida 250 ming nafar yoshlar marketing, reklama, elektron savdo, IT-dizayner kabi 30 ta zamonaviy kasbga o’rgatiladi.

Aholi bandligini ta’minlashda qish-loq xo’jaligida imkoniyatlar keng. Oldingi yillarda shu maqsadda 200 ming gektar paxta va g’alla maydonlari qisqar-tirilib, dehqonchilik uchun odamlarga bo’lib berilgan edi. Bu yil yana 60 ming 500 gektar yer yoshlarga ajratilishi bel-gilangan.

Bundan samarali foydalanish uchun yangi tartib o’rnatilishi qayd etildi. Unga ko’ra, tuman hokimlari yemi suv ta’minoti yaxshi joydan ajratishga mas’ul bo’ladi. Har bir yoshga qancha maydon ajratish bo’yicha “mahalla yet-tiligi” taklif beradi. Yer olgan yoshlar Agrobankning “Fermierlar maktabi”da

hosildor eksportbop ekinlar yetishti-rishga o’qitiladi. Mini-texnika, urug’ va ko’chatlar sotib olishga “Yoshlar daftari” jamg’armasi hamda Fermierlar jamg’ar-masidan subsidiya ajratiladi. Dehqon yoshlarga eksportchi va qayta ishlovchi tadbirkorlar kooperatsiya asosida biriki-tiriladi. Bundan tashqari, meva-sabzavot kooperatsiyalariga banklar orqali 2 mil-liard so’mgacha kredit ham beriladi.

Yig’ilishda O‘zbekiston Prezi-dentining shu yil 18-yanvardagi “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yer uchastkala-rini ijaraga berish tartibini takomillashti-rish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni ijrosiga ham to’x-talib o’tildi. Mazkur farmonda 156 ta tu-manda 15 ming 626 gektar qishloq xo’-jaligi yerlari onlayn auktsion savdolariga chiqarilishi belgilangan.

Davlatimiz rahbari ushbu yerlarni aholiga yaqin, suvi va unumdorligi yax-shi joylardan ajratib, kooperatsiya aso-sida eksportbop ekinlar ekish muhimli-gini ta’kidladi. Hokimlarga qo’shimcha yerlarni o’zlashtirib, ish o’rinlari uchun zaxira yaratib borish vazifasi qo’yildi.

Yig’ilishda muhokama qilingan ma-salalar yuzasidan mutasaddilarning ax-boroti eshitildi.

O’ZA

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV NOMIGA

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovdan O‘zbekistonda Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilingani munosabati bilan minnatdorlik maktubi keldi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Hurmatli Shavkat Miromonovich, Qadrlı birodarim,

Avvalo, Sizga o‘zinning samimiy salomlarimni yo‘llab, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va yaxshi qo‘shni-chilik munosabatlarini rivojlantirish hamda mus-tahkamlashga qo‘shayotgan ulkan shaxsiy hissangiz uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Sizning buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida qabul qilgan qaroringiz buning yana bir yaqqol ifodasi bo‘ldi.

Gumanist va ma‘rifatparvar shoir sifatida o‘zining ijodi va falsafiy merosi bilan insoniyat ma‘naviy xazi-nasidan abadiy joy olgan Maxtumquli Firog‘iyning jahon adabiyoti va madaniyati tarixidagi alohida o‘mi haqidagi fikrlaringizga to‘liq qo‘shilaman. Va albatta, biz Maxtumqulining turkman va o‘zbek xalqlarining o‘zaro qardoshligi, do‘stligi hamda mustarak taqdir-lari poydevorini yaratishga qo‘shgan ulkan hissasi to‘g‘risida hamisha chuqur minnatdorlik va g‘urur tuyg‘usi bilan gapiramiz.

O‘zbekiston Maxtumqulining hayoti va ijodida alo-hida o‘rin egallaydi. Ulug‘ shoir Xivada ta’lim olib,

O‘zbekiston tarixini juda yaxshi o‘rganib, ushbu za-minga chinakam mehr, uning xalqi va an‘analarga katta hurmat va ehtirom rishtalari bilan bog‘landi.

Bugungi kunda Maxtumqulining she‘rlari o‘zbek tilida yangrayotgani, O‘zbekistondagi maktab va universitetlarda o‘rganilayotgani tabiiy holdir. Xuddi shu kabi Turkmanistonda ham Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Munis Xorazmiy kabi buyuk o‘zbek shoir-lari, alloma va mutafakkirlarini bilishadi va hurmat qilishadi.

Ishonchim komilki, O‘zbekistonda Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligi keng nishonlanishi xalqlarimiz va davlatlarimiz o‘rtasidagi qardoshlik rishtalari mustahkamligining, umumiy tarixiy taqdi-rimiz, o‘zaro hamjihatligimiz va jipslikka doimo tayyor ekanimizning yana bir ifodasi bo‘ladi.

Qabul qilgan qaroringiz uchun yana bir bor min-natdorligimni qabul qilishingizni so‘rayman.

Fursatdan foydalanib, Sizga mustahkam sihat-salo-matlik, baxt-saodat, davlatchilik va siyosiy faoliyatini-gizda yangi yutuqlar, O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV, turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi

Prezident tashrifidan so‘ng

BAXT O‘ZI NIMADIR...

Buni Yangi hayot tajribasidan o‘rgansa bo‘ladi

Andijonning Xonobod shahri tarixi ming yillarga borib taqaladi. Qoradaryoning o‘ng sohilida joylashgan bu mo‘jaz shahar Qo‘qon xonligi davrida “Beshkapa” nomi bilan yuritilgan. O‘zgan va O‘sh savdo yo‘li ustida joylashgan manzilda karvonlar to‘xtab o‘tgan. Bugun esa Xonobod yurtimizning obod va xushmanzara shaharlaridan.



Davomi 2-betda

Sharh

DAVLAT DASTURINING MUALLIFI — XALQ

HUJJAT YURTDOSHLARIMIZ TALAB, FIKR VA ISTAKLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILDI

Prezidentimizning joriy yil 21-fevraldagi farmoni bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Unda yil nomiga mutanosib ravishda yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, sud-huquq, ekologiya sohalarida joriy yilda amalga oshiriladigan ko‘lamdor vazifalar belgilandi.

Qayd etish kerakki, yurtimiz taraqqiyotining bir yillik dasturidagi vazifalar, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Davlat dasturi mam-lakatning yaqin va uzoq istiqboliga oid hujjat bo‘lgani bois, xalq bilan bamaslahat qabul qilinishi, unda fuqarolarning barcha ezuq istaklari, ularga erishishning aniq yechimlari aks etishi zarur.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi ham 2024-yil 1-15-fevral kunlari strategy.uz, regulation.gov.uz veb-portalla-rida jamoatchilik muhokamasiga qo’yildi. Davlat dasturining mazmun-mohiyati haqida 34 million uyali aloqa foydalanuvchilariga 566 millionta SMS-xabaroma yuborildi.

Internet saytlarda 2 mingga yaqin axborot va tahliliy maqolalar joylashtirildi. Loyiha bilan 4 milliondan ko‘proq yurtdoshimiz bevosita tanishdi, 30 mingdan ortiq taklif va fikr-mulohazalar bildirildi.

E’tirofga molik jihati, davlat dasturi loyihasi yuzasidan xorijiy mamlakatlar, xususan, AQSH, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Koreya, Yaponiya, Niderlandiya, Irlandiya, Qozog‘iston va Tojikistonda yashovchi vatandoshlar ishtirokida 25 ta oflayn, 12 ta onlayn hamda ijtimoiy tar-moqlar orqali 200 dan ortiq uchrashuv va muloqotlar tashkil etildi.

— Jamoatchilik va ekspertlar muhokama-siga ko‘ra, 100 ga yaqin konseptual takliflar davlat dasturida o‘z aksini topdi, — deydi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi di-rektori Eldor Tulyakov. — Bundan tashqari,



mingdan ortiq takliflar dasturga tahliliy, aniqlik kiritish nuqtayi nazaridan xizmat qilgani-ni alohida e’tirof etish kerak.

Davomi 2-betda

Oziq-ovqat xavfsizligi

AGRAR ISLOHOTLAR AHAMIYATI NIMADA?

Insoniyatning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash oxirgi paytlarda shakllangan masala emas. U har doim, har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifa bo‘lib kelgan. Zero, bu hayotning asosini tashkil etadi.

Dastlab ochlik va to’yib ovqatlanmaslikka qarshi kurash olib borilgan. Keyinchalik ishlab chiqarish va umumiy taraqqiyot tufayli odamlarning yashashi hamda unumli faoliyat ko’rsatishi uchun optimal miqdordagi oziq-ovqatga ehtiyojini ta’minlashga e’tibor qaratilgan. Endi esa mutaxassislar oldida sog’lom hayot kechirish uchun ilmiy asoslangan sanitariya me’yorlari va xilma-xilligiga erishish vazifasi turibdi.

Dunyo aholisi bilan birga oziq-ovqatga ehtiyoj ham oshib bormoqda. Bunday holatda quyidagi savol tug’ilishi tabiiy hol: qish-loq xo’jaligi va tabiat ne’matlari bu talablarni ta’minlashga qay darajada qodir? Mazkur masala uzoq yillardan buyon kun tartibidan tushmay kelmogda. Ayni paytda esa ahamiyati sezilarli darajada oshdi.

Qishloq xo’jaligi — insonning noyob faoliyati. Boshqa hech qanday ishlab chiqarish

qishloq xo’jaligining o’rmini to’la bosa olmaydi. Yana bir jihati: bu faoliyat zamirida asosiy noyob tabiiy boyliklar — yer va suv yotadi. Sohaning muvaffaqiyatli rivojlanishi ularning mavjudligi va holatiga bog’liq.

Bugun tabiiy resurslar bilan bog’liq vaziyat keskinlashmoqda. Iqlim o’zgarishiga oid tabiat hodisalari esa qishloq xo’jaligiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Kun sayin ko’payib borayotgan dunyo aholisining oziq-ovqatga ehtiyojini qondirish maqsadida odamzodning boshqa so-halardagi faoliyati resurslarga ham katta bosim beradi. Shu tufayli qishloq xo’jaligi yerlarining tabiiy unumdorligi pasayib bormoqda.

Davomi 4-betda

2-2,5 MING DOLLARLIK MAOSHLI ISHLARGA TAKLIFLAR KO‘PAYYAPTI



3

MILLIY G‘URUR — VATANGA MUHABBAT HOSILASI



6



Sharh

DAVLAT DASTURINING MUALLIFI — XALQ

HUJJAT YURTDOSHLARIMIZ TALAB, FIKR VA ISTAKLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILDI

Boshlanishi 1-betda

Takliflar miqdori va salmog‘i ham juda katta bo‘ldi. Xususan, ularda bio, nano-tibbiy texnologiyalar, tibbiy sug‘urta, davolash standartlari, sud tizimi, tirbandlikning oldini olish, davlat xaridlari, voyaga yetmagan shaxslar bilan ishlash kabi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda energiya tejamkorligi, issiqlik tarqatuvchi tashkilotlarda muqobil energiya turlaridan foydalanish, ta‘lim sifatini yaxshilash, suv ta‘minoti bilan bog‘liq masalalar ham muhokamalar jarayonida jamoatchilik tomonidan ilgari surildi.

Yana bir muhim jihat. Farmon bilan 2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste‘dodli va iqtidorli yoshlar “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijtiro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona-tashkilotlar hamda oliy ta‘lim tashkilotlari rahbarlariga biriktiriladi. Bunda mazkur rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o‘ziga birlashtirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko‘maklashadi.

Belgilanganidek, yoshlarning salohiyati, iste‘dodi va tashabbuslarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida 1-martdan boshlab mahalla, ta‘lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamg‘armasi 600 million so‘m miqdorida xorijiy tillar bo‘yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “Zakovat” intellektual o‘yinlari o‘tkaziladi. Kasblar tanlovida g‘olib bo‘lgan yoshlar “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan jihozlangan ustaxona bilan ta‘minlanadi.

Shuningdek, ekologiya, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish kabi ijtimoiy ahamiyatga molik 100 ta volontyorlik loyihasi bo‘yicha birinchi bosqichda bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobarigacha mablag‘ tanlov asosida ajratiladi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida 2024-yil 1-iyundan boshlab “Yosh tadbirkor” tanlovlari o‘tkaziladi. Tanlovning Respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratiladi va kredit stavkasining 50 foizi qoplab beriladi.

“Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘laridan yoshlarni chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish maqsadlariga yo‘naltiriladi. Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha “Ustoz” maxsus platformasi ishga tushirilib, dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 150 ming yigit-qiz qamrab olinadi.

Shuningdek, “Qizlar akademiyasi” platformasi ishga tushirilib, yosh xotin-qizlar tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o‘rgatiladi va ular uchun turli tanlovlar o‘tkaziladi. 2024-yil 1-martdan boshlab “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturi joriy etiladi.

Farmonda “Biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida 2024-yil yakuniga qadar kamida 200 mingta yangi tadbirkorlik subyekti, jumladan, 90 mingta korxona va 110 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta‘minlash vazifalari belgilandi.

2024-yil 1-iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlash chiqarishni boshlayotgan korxonalarga bir qator imtiyozlar beriladi. Xususan, xalqaro standartlar, ekologik sertifikatlash xarajatlari qoplab beriladi va zarur barcha xomashyo bojxona bojidani ozod etiladi. Yirik brendlardan jalb qilingan texnolog, dizayner, marketolog kabi mutaxassislardan O‘zbekistonda ishlaganlik uchun to‘lovlar undirilishi bekor qilinadi.

— Davlat dasturida belgilanayotgan barcha tadbirlar xarajatlari uchun davlat byudjetidan qariyb 30 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi

Iqtisodiy tarmoqlarda 18 milliard dollarlik 309 ta yirik loyiha ishga tushirilishi ta‘minlanadi. Joriy yil 1-apreldan boshlab davlat investitsiya dasturlari doirasida markazlashgan manbalar hamda DXSH hisobidan amalga oshiriladigan yirik loyihalarga sanoat korporatsiyasi talablari joriy etiladi.

Farmonda ko‘zda tutilgan muhim yangilikdan yana biri — 2024-yil 1-maydan boshlab fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun majburiy to‘lovlar va yig‘imlarni faqatgina qonunda belgilash amaliyoti joriy etiladi.

Toshkent shahrida oyning bir ish kuni davomida “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasi amalga oshiriladi. Yo‘l harakati qoidalarini buzilishi holati yuzasidan yuboriladigan qaror va xabarnomalar ustidan Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron murojaat qilish imkoniyati yaratiladi.

ko‘zda tutilmoqda, — deydi Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Otabek Fozilkarimov. — Shundan 15 trillion so‘mi ijtimoiy sohaga yo‘naltiriladi. Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash yo‘nalishi doirasida yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘atini olti foizdan kam bo‘lmagan darajada, shundan investitsiyalarni esa YIM hajmiga nisbatan kamida 30 foiz bo‘lishi bo‘yicha barcha choralar ko‘riladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida joriy yilga mo‘ljallangan yo‘nalishlar kesimidagi amaliy tadbirlar rejalari, 2024-yilda yo‘nalishlar kesimida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati, yo‘nalishlar kesimida 2024-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar tasdiqlandi.

Ta‘kidlash kerakki, dastur har bir insonga o‘z

Prezident tashrifidan so‘ng

BAXT O‘ZI NIMADIR...

Buni Yangi hayot tajribasidan o‘rgansa bo‘ladi

Boshlanishi 1-betda

Joriy yil 15-16-fevral kunlari davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashrifi doirasida Xonobod shahrining Yangi hayot mahallasida istiqomat qiluvchi Salohiddin Usmonov xonadonida ham bo‘ldi.

— Eshikdan Prezidentimiz kirib kelganida, ochig‘i, hayajondan o‘zimni qo‘yarga joy topolmay qoldim. Davlat rahbari qayoqda-yu, men qayoqda? Kuniga mingta ishi, yelkasida yana shuncha tashvishi bor odam, axir. Shuning uchun ham Prezident bilan yuzmayuz uchrashib, gaplashishni hech qachon xayolimga keltirmaganman. Samimiy so‘zlari, taklif va tavsiyalari biz uchun, mahallamiz uchun katta sharaflar bo‘ldi. Qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘lar “Xudo yorlaqagan inson ekansiz, yurt otasi xonadoningizga keldi-ya”, deb havas bilan gapirdi, — deydi S.Usmonov. — Bu tashrifdan ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi.



Mahallamiz odamlari hayotiga yorug‘lik olib kiradigan o‘zgarish va yaxshiliklar ham so‘nggi yillarda ro‘y berdi.

O‘zim haqimda gapiradigan bo‘lsam, butun hayotim og‘ir mehnatda o‘tgan. 9 farzandli katta oilada ulg‘aydim. 9 yoshimda



2017-2019-yillarda Xonobod shahrini kompleks rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilib, 3200 dan ziyod loyiha ijrosiga kirishildi. Buning uchun 500 milliard so‘mlik mablag‘ yo‘naltirildi. Jumladan, “Xonobod” sihatgohi qurilib, foydalanishga topshirildi. Uch ming sayyohga mo‘ljallangan mingdan ortiq dam olish uylari, mehmonxonalar, xizmat ko‘rsatish inshootlari va “Yoshlar markazi” barpo etildi.

hovlimizda oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ydik. Qo‘ziqorin yetishtiramiz. Oltimishdan ortiq odamni ishli qildik. Birim mingga aylanib, o‘zimdani o‘rtirib, ko‘plab yurtdoshlarimga ham nafim tegyapti.

Maqolani tayyorlash jarayonida S.Usmonovning besh tilda bemalol so‘zlasha oladigan 30 yoshli o‘g‘li Jamshidbek Usmonov bilan suhbatlashdik. U maktabni tugatganidan so‘ng Xitoyda tahsil olgan. Qo‘ziqorin yetishtirish g‘oyasini ham uydagilarga aynan u tavsiya qilgan.

Bugun Jamshid nufuzli kompaniyada menejer bo‘lib ishlaydi. Ikki farzandning otasi. Davlatimiz rahbari bilan uchrashuv unga ham yana bir yangi g‘oya berdi. Xonobodda xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv markazi ochishni rejalashtiryapti.

Ha, bugun odamlarning dunyoqarashi o‘zgardi, harakat qilsa, baraka kelishini anglab yetdi. Hovlisining har qarichidan unumli foydalanadiganlari safi kengaymoqda. Masalan, ixchamgina yopiq bir joyda qo‘ziqorindan millionlab so‘m daromad topish boshqalar o‘rgansa, o‘mak olsa arzigulik tajriba. Prezidentimiz Usmonovlar xonadoniga tashrifi chog‘ida bunday omilkorlikni ma‘qullab, ushbu tajribani ommalashtirish lozimligini ta‘kidladi: **“Biz birinchi kundan xalq bilan muloqot, xalqni rozi qilishga kirishganmiz. Shuning uchun mahalla tizimini birinchi bo‘g‘in sifatida rivojlantiryapmiz. Mahalla — fuqarolik jamiyatining asosi. Bu xalqning dardi, ovozi, degani. Mahalladagi davlat vakillari berilgan vakolat va mablag‘lardan foydalanib, dunyoqarashini o‘zgartirib, odamlarni rozi qilishi kerak. Ishonamanki, Yangi hayot mahallasi O‘zbekistonga namuna bo‘ladi”**.

— Mahallamizga bugun ko‘pchilikning havasi kelyapti. Prezidentimiz mahallamizga bejiz tashrif buyurmadi, — deydi “Yangi hayot” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Azizaxon Abduqahhorova. — Birgina mahallamiz misolida butun bir tizim tahlil qilindi, mahalla institutining ishlash mexanizmlari birma-bir belgilab berildi. Tashrif davomida mahallamizni mamlakatga namuna qilish



topshirig‘i berildi. Bu esa yangi hayotliklar qalbidagi iftixor tuyg‘usini jo‘shirdi. Mahalla yetiligi mexanizmining ishlashi bo‘yicha Andijon tajribasi bunda dasturilamal bo‘lishi kerakligi ham alohida ta‘kidlandi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining **“Har bir mahallaning o‘z imkoniyatlari, an‘analari, odamlarning xohish-istaklari bor. Mahalla uyushmasi va iqtisodiy kompleks vakillari ularni aniqlab, qo‘llab-quvvatlash, aholini band qilish, daromad manbai yaratish mumkin. Shuning uchun hamma mas‘ullarni quyi bo‘g‘ingaga tushirib, hududlarni mahallabay rivojlantirishga e‘tibor qaratyapmiz”**, degan so‘zlari mahalla va fuqarolar musharakligini hamda mahalla davlatga juda katta foyda keltirishini barchamizga yanroq anglatdi.

Chindan ham mahalla yetiligi tizimining tatbiq etilishi yetti marta o‘ylab, bir kesilgan juda muhim strategiyadir. Kundan-kun chiroyi ochib, ko‘rkamlashib borayotgan

xavfni aniqlash bo‘yicha profilaktik ko‘riklar tashkil etiladi.

Farmondan davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatida ochiqchilik darajasini keskin oshirish va korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, eksport hajmini ko‘paytirish bilan bog‘liq vazifalar ham o‘rin olgan.

Eng muhimi, joriy yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ekiladi, 444 ta yashil bog‘lar barpo etiladi. Shu bilan birga, 1-martga qadar suv kanallarini rekonstruksiya qilish ishlariiga Davlat byudjetidan qo‘shimcha ajratilgan 500 milliard so‘m mablag‘ doirasida kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlash ishlariini yakunlash belgilangan.

Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida bir qator cheklovlar joriy etiladi. Jumladan, 500 va undan ortiq kvadrat metrlik qurilish maydonlariga havoga chang ko‘tarilishini bartaraf etish, Toshkent shahrida yuk tashish uchun mo‘ljallangan, ruxsat etilgan to‘la vazni 10 tonnadan yuqori bo‘lgan avtotransport vositalarining harakatini tig‘iz vaqt oralqlarida taqiqlash bo‘yicha choralar ko‘riladi.

Toshkent shahrida o‘yning bir ish kuni davomida “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasi amalga oshiriladi. Yo‘l harakati qoidalarini buzilishi holati yuzasidan yuboriladigan qaror va xabarnomalar ustidan Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron murojaat qilish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, farmon bilan tasdiqlangan davlat dasturining muallifi xalq. Sababi, hujjat xalqqa xizmat qilishga qaratilgan va u yurtdoshlarimiz talab, taklif va istaklari asosida takomillashtirildi.

Endigi vazifa yanada mas‘uliyatli — dastur ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta‘minlash. Bu esa har birimizdan faollik talab qiladi.

Lutfulla XAYRULLAYEV,
jurnalist

Inson qadri uchun

2-2,5 MING DOLLARLIK MAOSHLI ISHLARGA TAKLIFLAR KO‘PAYYAPTI

Aholi migratsiyasi insoniyat sivilizatsiyasi kabi qadimiy hodisa. Ba‘zan ko‘chish ixtiyoriy tarzda yuz beradi, odamlar yaxshi hayot izlab begona yurtga ko‘chib o‘tadi. Ayrim hollarda esa urush yoki tabiiy ofatdan qochib, ko‘chishga majbur bo‘ladi. Hozirgi davrda migratsiya, asosan, yuqori daromadli ish qidirish bilan bog‘liq. Mehnat migrantlari ish kuchi ortiqcha mamlakatdan ishchiga talab yuqori yurtga borishi tabiiy holga aylandi.

yoxud tashqi mehnat migratsiyasi faoliyatiga bir nazar

Aslida, mehnat migratsiyasi rivojlanayotgan davlatlarga xos, iqtisodiy jihatdan samarali yo‘nalish hisoblanadi. Nima uchun aslida, deyamiz? Chunki ayrim davlatlarning ishsizlikni tan olmasligi ortidan noqonuniy mehnat migratsiyasi rivojlanadi, pirovardida esa, ishchilar haq-huquqlari toptalishi, odam savdosi kabi muammolar kelib chiqadi. Mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tashkillashtirilishi esa yuqoridagi kabi noxush holatlarning oldini olibgina qolmay, ishchining biror kasb-hunari puxta o‘zlashtirishi, uning xavfsiz mehnat sharoitida ishlashi va albatta, shunga yarasha daromadga ega bo‘lishini kafolatlaydi.

Shu bois ham mamlakatimizda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish, xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning muammo va ehtiyojlarini o‘rganish hamda hal qilishga alohida e‘tibor qaratilayapti.

Keyingi yillarda tizim faoliyati doirasida mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish, kasb-hunar va chet tillariga o‘qitish orqali fuqarolarni xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirishga ko‘maklashish, ularga huquqiy va moddiy yordam ko‘rsatish, xorijdan qaytgan mehnat migrantlari bandligini ta‘minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshiriladi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, 2024-yilda birgina Koreyaga ishga yuborish uchun ilk bor 100 ming nafar nomzod tanlovlarga jalb qilinadi. Tanlov ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish (mehmonxona va oshxona), qurilish sohalarida mehnat qilmoqchi bo‘lgan fuqarolarni qamrab oladi. Maoshlar o‘rtacha 2000-2500 dollar bo‘lishi aytilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi esa xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda Germaniyada yoshi 18-35 orasida bo‘lgan talabgorlar uchun hamshira, yuk avtomobili haydovchisi, yuk va qishloq xo‘jaligi avtomobillarini ta‘mirlash, mehmonxona, restoran, turizm, hunarmandchilik, mexatronika, qurilish va boshqa sohalarga xizmat ko‘rsatish uchun 50 mingga bo‘sh ish o‘rni haqida e‘lon berdi. Agentlikka ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan nomzodlar nemis tili kurslarida o‘qitiladi.

Ayni paytda ijtimoiy tarmoqlarda shu kabi e‘lonlarga tez-tez ko‘zimiz tushyapti. Albatta, ish beruvchi davlatlar geografiasini kengaytgan yaxshi. Lekin mehnat migrantlarining chet ellarda haq-huquqlarini kafolatlash, xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimiz va ularning oilasini qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy qilingan imtiyozlar ko‘lamini kengaytirish, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini yo‘lga qo‘yish, ularning xavfsizligini ta‘minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Quvonarlisi, bugun ayni yo‘nalish bilan bog‘liq vaziyat tubdan o‘zgardi. Bu fuqarolarimizning chet elda ishlashi uchun sharoitlar yaratish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, kafolati mehnat bozori bilan ta‘minlash, yurtimizga qaytib kelgandan keyingi taqdiriga befarq bo‘lmaslik kabi sa‘y-harakatlarda namoyon bo‘lmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta‘minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish borasida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat



migratsiyasi agentligi zimmasiga qator vazifalar yuklatilgan.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada fuqarolarimizga yaratilayotgan yengillik va imtiyozlar, istiqboldagi vazifalar xususida **Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi boshlig‘i Jahongir XUDOYXO‘JAYEV** bilan suhbatda bo‘ldik.

— **Xorijiy davlatlarning mehnat bozori ehtiyojlarini o‘rganish, eng ko‘p talab etiladigan kasbiy mutaxassislarni aniqlash va fuqarolarni ushbu mutaxassislarga yo‘naltirish mazkur sohaning eng ustuvor vazifalari sirasiga kiradi. Aytinch, bu borada qanday ishlar amalga oshirilyapti?**

— Avvalo shuni ta‘kidlash joizki, tizimda amalga oshirilayotgan muhim chora-tadbirlar, birinchi navbatda, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish, xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning muammo va ehtiyojlarini o‘rganish hamda hal qilish bo‘yicha yangi tizim, yangicha yondashuvlarni joriy etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tashqi mehnat migratsiyasi yo‘nalishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ya‘ni muhimlik darajasidan kelib chiqib, har yili ushbu yo‘nalishdagi ishlar sifatini oshirishga qaratilgan vazifalar belgilanadi. Buni “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonidan o‘rin olgan vazifalar misolida ham ko‘rish mumkin.

Jumladan, davlat dasturiga muvofiq, tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish maqsadida noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik yanada rivojlantiriladi. Tashqi mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish doirasida xorijiy davlatlar bilan yangi mehnat bozorlariga chiqish va mazkur yo‘nalishdagi tartib-taomillarni soddalashtirish bo‘yicha ham hamkorlik jadallashtiriladi.

Buning uchun Xalqaro migratsiya tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi, Jahon banki kabi tashkilotlar bilan noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohalarida hamkorlik memorandumlarini imzolash, xorijiy tomon bilan ishga joylashtirish bo‘yicha kelishuvlar sonini oshirish, xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolar, ayniqsa, ayollar va yoshlarni chet elga chiqishdan oldin moslashtirish, xorijiy tillarga va kasb-hunarga o‘qitish hamda ishga joylashishga ko‘maklashish kabi vazifalar belgilangan.

2022-yilda tashkiliy tartibda xorijiy davlatga ishga joylashtirilgan fuqarolarning 40 foizi rivojlangan va ish haqi yuqori bo‘lgan (1,2-2,5 ming AQSH dollar.) davlatlarga yuborilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 62 foizga yetkazildi. Xususan, ilk bor 2 mingga yaqin fuqaro Buyuk Britaniyaga, 500 nafarga yaqini Germaniyaga yuborildi.

Umuman olganda, davlat dasturida belgilangan vazifalar tashqi mehnat migratsiyasi yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida yangi samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish uchun asos bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

O‘tgan yili ham davlat dasturi, yo‘nalishga doir boshqa hujjatlardan kelib chiqadigan vazifalar doirasida tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, izchillik bilan amalga oshirildi.

Qayd etish kerak, 2023-yil boshidan xalqaro tashkilotlar bilan belgilab olingan istiqboldagi vazifalar, xususan, Migratsiya masalalari bo‘yicha xalqaro tashkilotning O‘zbekistondagi vakolatxonasi vakillari bilan “Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasini 2022-2026-yillarda amalga oshirish dasturi”, “Buyuk Britaniyaga mavsumiy ishchilarni tashkiliy yollash dasturlari bo‘yicha O‘zbekiston va Buyuk Britaniya manfaatdor tomonlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish” loyihasi doirasidagi ishlar samarali amalga oshirildi.

Bundan tashqari, Migratsiya masalalari bo‘yicha xalqaro tashkilot bilan 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun Buyuk Britaniyaga xavfsiz migratsiyaga ko‘maklashish” hamda 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan “Migratsiya sohasidagi dasturlar uchun mintaqaviy tahlil va dalillar” nomli yangi loyihalar amalga oshirilmog‘da. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi va Qatar davlati o‘rtasida ishchilarni jalb qilish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida kelishuv” imzolandi.

Hukumat qarori asosida tashkil topgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi xorijiy ishchi kuchini yollovchi 68 ta korxonada ishlash uchun qariyb 1,6 ming xorijiy fuqarolarga mehnat faoliyati huquqi tasdiqnomasi rasmiylashtirib berildi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining Latviya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Germaniya, Isroil kabi davlatlarning mamlakatimizdagi elchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarida mehnat migratsiyasi masalalari muhokama etilgan migratsiya geografiasini kengaytirish, rivojlangan davlatlar mehnat bozoriga fuqarolarimizni ishga jalb qilish imkonini bermog‘da.

— **O‘tgan yilgi davlat dasturi doirasida bajarilgan ishlarga ham to‘xtalib o‘tsangiz.**

— Strategiyaning “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil

davom ettirish” bo‘limi 95-bandida belgilangan maqsad va vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari ijrosini tashkil etish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Bu borada, eng avvalo, noqonuniy mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Shu bilan birga, tashqi mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish doirasida xorijiy davlatlar bilan yangi mehnat bozorlariga chiqish va mazkur yo‘nalishdagi tartib-taomillarni soddalashtirish bo‘yicha hamkorlik jadallashtirildi. Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda ishlayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimi joriy etildi.

O‘tgan yilda 24 ta xorijiy davlatning 400 ga yaqin yirik ish beruvchi tashkilotlari va rekrutning agentliklari bilan tashqi mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik qilish bo‘yicha muzokaralar olib borildi. Natijada O‘zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo‘yicha ish beruvchi va rekrutning agentliklari bilan 118 ta shartnoma imzolashiga erishildi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar bilan o‘tkazilgan muzokaralar samarasi o‘laroq, Agentlik bilan hamkorlik kelishuvi imzolagan mazkur ish beruvchi va rekrutning agentliklarining 100 mingdan ortiq bo‘sh ish o‘rinlari aniqlandi. 60 mingga bo‘sh ish o‘rni talabomani olindi. Shu asosida 38 ming 400 dan ortiq fuqaroning xorijiy davlatlarga tashkiliy va manzilli tartibda ishga joylashishiga ko‘maklashildi.

2022-yilda tashkiliy tartibda xorijiy davlatga ishga joylashtirilgan fuqarolarning 40 foizi rivojlangan va ish haqi yuqori bo‘lgan (1,2-2,5 ming AQSH dollar.) davlatlarga yuborilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 62 foizga yetkazildi. Xususan, ilk bor 2 mingga yaqin fuqaro Buyuk Britaniyaga, 500 nafarga yaqini Germaniyaga yuborildi. Janubiy Koreyaga yuborilgan fuqarolar soni 1,5 barobarga ko‘payib, 4,9 mingga yetdi.

Bundan tashqari, mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik qilish maqsadida xorijiy davlatlarning vakolati tashkilotlari bilan oltita memorandum imzolandi.

Ayni kungacha Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan hamkorlik kelishuviga ega ish beruvchi va rekrutning agentliklari soni 268 tani tashkil etib, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “labor-

migration” dasturiy majmuasining ish beruvchilar reyestriga kiritildi.

Bugungi kunda xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarning kasbiy malakasi va yapon tilini bilish darajasini baholash bo‘yicha Yaponiyaning “Prometric” tashkiloti faoliyatini yuritmoqda, ingliz tili bo‘yicha bilimni baholovchi bir nechta tizim (IELTS, TOEFL, B2 FIRST, C1 ADVANCED) mavjud, nemis tilini baholash Toshkentdagi Goyote institutida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 2023-yilda Germaniyaning “High Standart Personal Service GmbH” kompaniyasi bilan hamkorlikda “OsD” sertifikatlashtirish markazi ochildi.

Shuningdek, rus tilini bilish darajasini baholash bo‘yicha Toshkent shahrida Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti, Pushkin hamda Gersen nomidagi universitetlar vakolatxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

2023-yil 7-iyul kuni “Yangi O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” mavzusida tashkil etilgan xalqaro konferensiyaning “Xalqaro mehnat bozorining globalshuvi jarayonida O‘zbekistonning o‘rni va istiqbollari” masalalariga bag‘ishlangan sessiyasida mamlakatimiz mehnat migratsiyasi sohasidagi imkoniyatlari taqdim etilib, xorijiy davlatlar ish beruvchilari bilan 6 ta memorandum imzolandi.

— **Bugungi mehnat bozori tahlili va demografik jarayon qanday?**

— Statistik ma‘lumotga ko‘ra, O‘zbekistonda doimiy aholi soni 36 milliondan oshgan. Mehnat bozori tadqiqotlari instituti ma‘lumotiga ko‘ra esa, mehnat resurslari soni o‘rtacha 19,7 million, iqtisodiy faol aholi soni 15,1 million, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlar 13,9 million, shundan rasmiy sektorda 6,3 million hamda norasmiy sektorda 5,5 million kishiga to‘g‘ri keladi. Ishga muhtoj bo‘lganlar 1,2 million kishini, ishsizlik darajasi o‘rtacha 8,1 foizni tashkil etgan.

Amaldagi subsidiya hisobiga mehnat migrantlariga taqdim etilayotgan sug‘urta polisi samaradorligini oshirish maqsadida 10 dan ortiq sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida ochiq tanlov o‘tkazildi va tanlov g‘olibi bilan bir yillik hamkorlik bitimi imzolandi.

Unga ko‘ra, sug‘urta hodisalari bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar 3 tadan 6 taga ko‘paytirildi. Bunga bir yilgacha muddatda ishlash ruxsatnomalarini rasmiylashtira olmag hollarda vatanga qaytishda chipta, birinchi tibbiy yordam (2,3 ming AQSH dollarigacha), xorijda qiyin vaziyatga tushib qolganda yuridik xizmat (1 ming AQSH dollarigacha) va yashash joyisiz qolganida bir oygacha muddatga turar joy xarajatlarini (1,5 ming AQSH dollarigacha) to‘lab berish, salomatligi og‘ir bemorlarni tashish, zarurat bo‘lganda teg‘ tibbiy yordam ko‘chma bildiradilar xizmatlarini (1 ming AQSH dollarigacha), vafot etganda repatriatsiya xarajatlarini (6 ming AQSH dollarigacha) qoplash kiradi.

Ushbu davrda subsidiya hisobiga 132,9 ming nafar mehnat migrantning hayoti va sog‘lig‘i sug‘urta qilingan. Shu bilan birga, xorijga chiqib ketayotgan 2700 nafari yordam fuqarolarga tijorat banklari va ish beruvchilar tomonidan mikroqarzar berildi.

— **Xorijda vaqtinchalik ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish, dastlabki kasbiy tayyorgarlik, moslashuv tadbirlarini o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bu borada qanday chora-tadbirlar ko‘rilyapti?**

— Albatta, xorijda mehnat faoliyatini olib borish uchun kasb-hunar, til masalasi juda muhim. Shunga muvofiq, mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish natijasida aniqlangan ish o‘rinlarini to‘ldirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Bunda, bo‘ljak mehnat migrantlarini kasblar va xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi

32 ta monomarkaz va uning filiallari, 53 ta kasb-hunarga o‘qitish markazi, 13 ta qurilish sohasi malakali mutaxassislarni tayyorlash markazi hamda boshqa turli vazirlik va idoralar, nodavlat ta‘lim muassasalari, 10 ta xorijiy hamkorlar bilan tashkil etilgan kurslar imkoniyatidan keng foydalanilmoqda.

Birgina o‘tgan yilda 58 mingdan ziyod xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolar kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qishga jalb qilindi. Ulardan qariyb 56,7 ming nafari 30 ga yaqin turdagi kasblarga, 1,5 mingdan ortig‘i esa nemis, rus, ingliz, koreys, yapon kabi chet tillari kurslariga yo‘naltirildi.

O‘qitish jarayonini kengaytirish maqsadida koreys tili va madaniyatini o‘rgatishga ixtisoslashgan “Qirol Sejong” maxsus o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yildi. Talabgorlarni “offlayn” o‘qitishga ixtisoslashgan koreys tili kurslari, Toshkent va Namangan shaharlarida esa “onlayn” tartibda dastlab koreys tiliga, keyinchalik boshqa tillarga o‘qitishga ixtisoslashgan studiyalar tashkil etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda.

“Vatanparvar” nodavlat notijorat tashkiloti bilan yuk mashina haydovchilarini tayyorlashga doir hamkorlik kelishuviga ko‘ra, Yevropa davlatlarida yuk avtomobili va boshqa toifadagi haydovchilar uchun aniqlangan 11 ming ish o‘rni to‘ldirish uchun xorijda ishlash istagida bo‘lgan yurtdoshlarimiz mazkur NNT kurslarida o‘qitilmoqda.

— **Xavfsiz, tashkillashtirilgan xorijiy mehnat migratsiyasiga fuqarolarni yuborish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar haq-huquqlarini ta‘minlashga manzilli ko‘mak ko‘rsatish borasida nima ishlar qilyapti?**

— Bu borada ham qator amaliy ishlar qilindi. Jumladan, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ishchi guruhining Buyuk Britaniya, Ruminiya, Turkiya, Latviya, Litva, Koreya, Yaponiya, Rossiya, Qozog‘istonga xizmat safarlari tashkil etilib, yuzdan ziyod korxonada ishlayotgan 18 mingdan ortiq mehnat migrantlarining yashash va mehnat sharoiti o‘rganildi. Shuningdek, agentlik vakolatxonalari va vakillari, konsullik muassasalari tomonidan 1,5 mingga yaqin korxonada ishlayotgan 169,8 mingdan ortiq mehnat migrantlari faoliyati monitoring qilindi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakillaridan iborat delegatsiyaning Janubiy Koreyaga xizmat safari davomida Tejon, Pusan, Ulsan, Poxan hamda Seul shaharlaridagi korxonalarda mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz hamda ularning ish beruvchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Yurtdoshlarimizga yot g‘oyalari ta‘siriga tushib qolmaslik, turli buzg‘unchiliklardan ogoh va hushyor bo‘lish yuzasidan tushuntirish va tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, agentlik xorijdagi o‘zbek diasporalari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmog‘da. O‘zbekiston fuqarolari huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi hamkorlik shular jumlasidandir.

Mehnat migrantlari faoliyati monitoring qilinib, mehnat shartnomasi shartlari bajarilishi, ularning mehnat qilish va yashash sharoiti o‘rganildi. O‘rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi.

Eng asosiy, O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan, yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni yetkazish, milliy qadriyatlariga yot g‘oyalardan muhozaa etish doirasida muntazam sayyor qabul va davra suhbatlari o‘tkazib kelmog‘da.

— **Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar bandligini ta‘minlash va reintegratsiya qilish borasidagi ishlarga ham to‘xtalangsiz.**

— Ichki ishlar vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘tgan yilda xorijdan 926,5 ming fuqaro qaytib kelgan. Ularning manzilli ro‘yxati mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya tadbirlari bilan qamrab olish maqsadida kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalariga yuborildi.

Hududlarda xorijda bo‘lib turgan mehnat migrantlarini doimiy yashash manzillari bo‘yicha xonadonbo‘rganish natijasida 88,6 ming mehnat migranti oila a‘zolariga mas‘ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatildi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining 2024-yildagi asosiy faoliyat yo‘nalishlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, migratsiya geografiasini kengaytirish, xorijda ishlash istagidagi yurtdoshlarimizni dunyoning rivojlangan davlatlariga ishga jalb qilish, xususan, Kanada bilan mehnat migratsiyasi sohasidagi aloqalarni yo‘lga qo‘yish, Yevropa davlatlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, agentlikning boshqa xorijiy davlatlarda ham vakolatxonalarini oshish kabi masalalarga e‘tibor qaratiladi.

— **Mazmunli suhbatangiz uchun rahmat.**

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Lutfulla SUVONOV
suhbatlashdi.



BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozir qishloq xo'jaligi faoliyati uchun yaroqli yerning 40 foizi cho'llanish va degradatsiyaga uchragan. Iqlim o'zgarishi tufayli muzliklar erimoqda, suv zaxirasi kamaymoqda. So'nggi bir necha yilda sayyorada harorat misli ko'rilmagan darajada ko'tarilishi kuzatilyapti.

2024-yil 24-fevral, 40-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz_uz_news



yuz

Oziq-ovqat xavfsizligi

AGRAR ISLOHOTLAR AHAMIYATI NIMADA?



Nosirjon YUSUPOV,
iqtidosiyot fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozir qishloq xo'jaligi faoliyati uchun yaroqli yerning 40 foizi cho'llanish va degradatsiyaga uchragan. Iqlim o'zgarishi tufayli muzliklar erimoqda, suv zaxirasi kamaymoqda. So'nggi bir necha yilda sayyorada harorat misli ko'rilmagan darajada ko'tarilishi kuzatilyapti. Farazlarga ko'ra, bu holat kelgusida ham davom etadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tabiat qonuniyatlariga e'tibor bermaslik, aksincha, ularni inkor qilish mazkur jarayonning asosiy sabablaridan biri bo'ldi.

Albatta, bunday holatni faqat qishloq xo'jaligi bilan bog'lash to'g'ri emas. Odamzodning boshqa yo'nalishlardagi faoliyati, umuman olganda, turmush tarzi sayyoramizning mazkur holat bilan to'qnashishiga hissa qo'shdi. Ammo bundan ko'proq qishloq xo'jaligi jabrlanmoqda, oziq-ovqat muammosi keskinlashmoqda.

Bu kabi muammolar dunyoning barcha davlatida mavjud. Biroq bizning hududga ta'siri ko'proq. Dubayda o'tkazilgan ekologik sammitda Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar yuqoridir. Shu sababli, so'nggi yillarda o'ta issiq kunlar soni ikki barobar ortdi. Buning natijasida sayyoramiz muzliklarining uchdan bir qismi erib ketdi.

Xo'sh, hozirgi vaziyatdan chiqish yo'li bormi, bu qiyinchiliklarga qanday qarshi tura olish mumkin? Qanday chora-tadbirlar tufayli tabiiy resurslarni saqlab qolish, oziq-ovqat tanqisligi muammosini hal qilsa bo'ladi? Bu borada sezilarli yutuqlarga erishgan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, buning negizida asosiy ishlab chiqarish kuchi bo'lmish insonning erkin faoliyati, salohiyatini safarbar etuvchi, yuqori samarali mehnatga undovchi xo'jalik yuritish mexanizmi turibdi. Shu tufayli fan-texnika yutuqlari, ilg'or tajribalar, bugungi vazifalar ertangi kun manfaatlari bilan uyg'unlashdi.

Bunday xo'jalik yuritish mexanizmi bozor tamoyillariga asoslangan bo'lib, davlat va ishlab chiqaruvchilarning yagona maqsad sari harakatlanishini ta'minlaydi. Qolaversa, buni milliy miqyosdagi davlat-xususiy sheriklik, deb atash mumkin. Buning sharoiti bilan mamlakat iqtisodiyoti oqilona rivojlanish yo'lida keng imkoniyatlar ochiladi.

Davlatning vazifasi agrar sohada turli tashkilotlarning muvaffaqiyatli ish yuritishi uchun iqtisodiy, huquqiy sharoit yaratilishiga qaratilishi kerak. Oilaviy, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi klasterlari hamda kooperativlar, xolding va korporatsiyalar o'z faoliyatini teng va erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shu bilan

birga, qishloq xo'jaligi sohasida davlatning faqat o'zi hal qilishi kerak bo'lgan masalalar ham bor. Ular qatoriga yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi, atrof-muhitni muhofaza qiluvchi standartlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat qilish vazifalari kiradi.

Iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan agrar

qilish bo'yicha eng yuqori o'rinni egallab kelmoqda.

Xitoy tajribasi yagona misol emas. U bosib o'tgan yo'ldan kelayotgan Vietnam ham e'tiborga loyiq yutuqlarga erishib kelmoqda. O'tgan chorak asrdan buyon bu mamlakat chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechiryapti. Har bir tarmoqda, jumladan, qishloq xo'jaligida ham jadal yuksalish



islohotlar yuqoridagi tamoyillarga asoslandi. Xitoyning muvaffaqiyati hammaga ma'lum. Erishilgan yutuqlar negizida bozor mexanizmi turibdi. Cheklangan tabiiy resurslar bilan dunyodagi eng ko'p aholiga ega bo'la turib, uni qashshoqlikdan chiqarish, qomini to'ydirish yengil masala emas edi. Hozir Xitoy ushbu masalalarni hal qilish bilan birga, tabiiy resurslardan unumli foydalanish va samaradorligini oshirish, "yashil" sivilizatsiya tamoyillari asosida ishlab chiqarishni tashkil

kuzatilmoqda. Shu tufayli tashqi savdo salohiyati sezilarli darajada oshib borayotir.

Ko'p yillik urushlardan charchagan qoloq mamlakatning ko'plab ijtimoiy muammolarini hal etishda iqtisodiy islohotlar asosiy omil sifatida xizmat qildi. Shu tufayli so'nggi yigirma yilda qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish ko'rsatkichi deyarli uch barobar oshdi. Ichki bozor ta'minlangandan so'ng tashqi bozorni o'zlashtirish jarayoni kengaya boshladi. Vietnam guruchining eng yirik

eksportchilaridan biriga aylandi. Shuningdek, qahva, choy, ziravorlar, yong'oq, turli dengiz mahsulotlari va kauchuk bozorida muhim o'rinni egalladi. Aholining surunkali to'yib ovqatlanmaslik va qashshoqlik, tashqi yordamga iqtisodiy qaramlik kabi quloqlik belgilari o'tmishda qoldi.

Ayni paytda Vietnam qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik mahsulotlari eksport aylanmasi bo'yicha dunyoda 15-o'rinni, Janubi-sharqiy Osiyoda esa 2-o'rinni egallab kelmoqda. Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari dunyoning 200 dan ortiq davlatida tarqala boshladi. U 2030-yilgacha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha dunyoning yetakchi 10 davlati qatoriga kirishni maqsad qilib qo'ygan. Xo'jalikni samarali yuritish tartibi, insonning unumli mehnat qilishi uchun kerakli sharoit yaratilishi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish omili bu rejalarning muvaffaqiyatli ro'yobini ta'minlaydi.

O'zbekiston ham tabiiy qiyinchiliklar, jumladan, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi va iqlim o'zgarishi oqibatlariga qaramay, qishloq xo'jaligi sohasida ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. Mamlakatimiz bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu boshqaruvning markazlashgan usullarini cheklash, ishlab chiqarish tuzilmalari faoliyatidagi to'siqslarni bartaraf etish, oilaviy korxonalarni kengaytirish, xizmat ko'rsatish sohalarini faoliyatidagi raqobat muhitini yaratish va boshqa jihatlarida namoyon bo'lmoqda. Mazkur sa'y-harakatlarning barchasi natijasini beryapti.

Shu bilan birga, bozor munosabatlarini rivojlantirish yo'lida qabul qilingan ikkita

eng muhim, prinsipial axamiyatga ega qarorni qayd etish lozim.

Birinchisi, 2022-yilda O'zbekistonda g'allakorlar yetishtirilgan hosilning bir qismini belgilangan narxda davlatga sotishdan ozod qilingani bo'ldi. O'z mahsulotlarini erkin tasarruf etish yo'lidagi yana bir to'siq olib tashlandi. Shubhasiz, bu turdagi chora o'tgan yilda g'alla yetishtirishning katta hajmiga erishishda qo'l keldi.

Ikkinchisi, paxta yetishtiruvchilarning iqtisodiy erkinligiga erishish yo'lidagi chora-tadbir bo'ldi. Biz qishloq xo'jaligini boshqarishning "sovetcha" yana bir samarasiz usulidan xalos bo'ldik. Uning mohiyati qishloq xo'jaligi korxonalarining barcha asosiy ishlab chiqarish masalalarini yagona markaz orqali hal etishdan iborat edi. Vaholanki, bu tizim mahsulot ishlab chiqaruvchilarga ham, markazga ham foyda keltirmadi. Boqimandalikka olib keldi, xolos.

Endi paxta yetishtiruvchilar faoliyat yuritish jarayonida ko'plab erkinliklarga ega bo'ladi. Ular o'z xohishiga ko'ra, mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi, klaster yoki boshqa birlashma tarkibiga kirishi, kredit mablag'larini bevosita olishi va mustaqil boshqarishi, o'zi istagan savdo sherigini tanlashi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, fermer xo'jaliklari anchaqan buyon kutgan, ularga mustaqil, erkin faoliyat yuritish uchun yo'l ochib beradigan sa'y-harakatlar bo'ldi.

Joriy yilda qilinishi zarur bo'lgan ishlar bundan kam emas. Erishilgan natijalar va tajribaga tayangan holda islohotlarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, oldimda turgan vazifalarni, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etishda muhim omil bo'ladi.

Hududlar qiyofasi

Ikki norasida farzandi bilan yolg'iz qolgan Shahlo Omonova ularni birovdan kam qilmaslik ilinjida jonini jabborga berib mehnat qilishga tayyor. Ayol boshi bilan topgan puli ro'zg'ordan ortmaydi. To'g'ri, yaqinlari, mahalladoshlari tashlab qo'ygani yo'q. Imkon qadar qo'llab-quvvatlab turibdi. Lekin qo'l bilan berganga qush to'ymas, deganlaridek ro'zg'oridan orttirib, uy-joylarni ta'mirlash bilan bog'liq shart-sharoitlarni hozirlashga imkon topa olmay qiynalardi. Hayotidan nolgani yo'q, boriga shukur qilib, ro'zg'or tebratib turibdi. Baxtiga farzandlari sog'-salomat ulg'aysa, hammasi izga tushib ketishiga umid qiladi.

Chekka va olis hududlarni obod va fayzli go'shaga aylantirish, aholi hayot tarzi uchun muhim bo'lgan shart-sharoitlar yaratish, infratuzilma tarmoqlari qurish, ta'mirlash yo'lida olib borilayotgan "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlari asosida amalga oshirilgan obodlik, bunyodkorlik ishlari ko'plab oilalar hayot tarziga yangi nafas, umid, ko'tarinkilik olib kirdi.

Quva tumanidagi "Qoraqum" mahalla fuqarolar yig'ini tuman markazidan 20 chaqirim olisda joylashgan. Mahalladagi 1118 xonadonda 5800 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Asosan, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan andamon bo'lgan mahallada keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Birgina "Obod xonadon" dasturi doirasida mahalladagi 19 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj, yakka-yolg'iz, kam ta'minlangan oilalar kundalik ehtiyojlari uchun kerakli bo'lgan shart-sharoit yaratildi. Uylar ta'mirlandi, oshxona, tandirxona, o'choq-mo'rilar tartibga keltirildi.

Yashash xonadonimiz ta'mirlanib, kerakli shart-sharoitlar yaratib berilganidan minnatdorman, — deydi Sh.Omonova. — Uyimizga pol yotqizishdi, yangi eshik-romlar

o'rnatilib, tomlarga shifer qilib berishdi. Mutasaddilar kelib, yashash tarzimiz, oilaviy ahvolimizni o'rganib, uy-joylarni ta'mirlab beramiz, deganida, to'g'risi, ishonmagandim. Ammo hammasi haqiqat ekan. Qisqa fursatda bunyodkorlik, obodonchilik ishlari amalga oshirilib, xuddi yangi uy qurib berishgandek bo'ldi. Bundan tashqari, farzandimni davolash uchun ham moddiy yordam ko'rsatishdi. Men yolg'iz emasligimni chin dildan his qildim. Hammasi uchun xalqimizdan, hukumatimizdan minnatdorman.

Zamonaviy xonadon, ko'cha va mahallalarda bo'lgan kishi bu qadar o'zgarib, o'ziga xos me'moriy yechimlarga ega bo'lgan eski qishloqning yangi ko'rinishiga hayrati va havasi ortadi. Tor va o'ngir-cho'ngir ko'chalarga shag'al yotqizish, asfaltlash, elektr, toza va oqova suv tarmoqlari tortish, pastqam, kesak devorli uylarni yangilash, sanitariya-gigiyena holatlarini yaxshilashga qaratilgan xayrli amallar kundan-kunga ommalashib bormoqda.

Bu yerda umumiy qiymati 20 milliard so'mdan ortiq bunyodkorlik va obodonchilik ishlari amalga oshirildi, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Mirzaakbar Ismoilov. — Obodonchilik ishlari doirasida mahalladagi xonadonlar xatlovdan o'tkazilib, 1671 oila turmush tarzi o'rganib chiqildi, mavjud

muammolar, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilandi, mas'ullar, mutasaddilar birlashtirildi. Natijada eski binolar o'rni zamonaviy inshootlar, tor va chang ko'chalarni keng va ravon asfalt yo'llar bilan almashdi. Odamlar o'z yashash joyini obod qilish uchun qo'lidan kelgan ko'makni berib, hasharlar uyushtirdi. Mahalla fuqarolar yig'ini binosi to'liq qayta ta'mirdan chiqarildi, kerakli shart-sharoitlar yaratildi. Mahalla g'uzari jamoatchilik kengashi, yoshlar uchun voleybol, basketbol maydonlari, qishloq oilaviy poliklinika filiali uchun zamonaviy bino qurib berilgani aholi uzog'ini yaqin, og'irini yengil qildi.

Aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida fuqarolarga imtiyozli kreditlar, yoshlarga subsidiyalarni ajratish, mahalladagi ishsiz xotin-qizlar, yoshlarni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik, hunarmandchilik an'analarni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor oshdi.

— Ishsiz 130 aholi bandligini ta'minlashda alohida e'tibor qaratildi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Odiljon Hakimov. — Bu jarayonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga subsidiya asosida imtiyozli kredit olish va shu orqali o'zini o'zi ish bilan band qilishi



Shu kunga qadar mahalladagi 42 ta ko'chada "Obod ko'cha" mezonlari joriy etilib, 24,8 kilometr ko'chaga asfalt, 22,9 kilometriga shag'al yotqizilib, piyodalar yo'laklari qurildi. 29,2 kilometr uzunlikda yangi elektr tarmog'i tortildi, 12 ta transformator o'rnatilib, 21 tasi ta'mirlandi.

uchun tavsiyalar berdik. Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 20 nafar tashabbuskor fuqaroga 561 million so'm kredit mablag'lari olishga ko'maklashdik. Bu hududlarni yanada obod qilish, savdo, xizmat ko'rsatish va yangi ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyatini kengaytirish imkoniyatini berdi.

Umida Erkinova ishsizligi bois, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan edi. Unga subsidiya asosida tikuv mashinkasi berildi. Bugun Umida mohir chevar sifatida ko'pga tanildi. Nafaqat o'zi, balki boshqa tengdoshlarini ham yoniga olib bichish-tikish ishlarini amalga oshirmoqda.

— Bir necha yildan buyon yog'ochdan uy jihozlari, eshik, rom tayyorlash bilan shug'ullanib kelaman, — deydi Nuriddin Arabboyev. — Keyingi yillarda bozor va mijozlarning talabu takliflari o'zgardi. Shu bois, ishlab chiqarish tarmog'ini kengaytirish, mahsulot turlari va sifatini oshirish uchun imtiyozli kredit ajratish yuzasidan qilingan murojaatim qanoatlantirildi. Menga 60 million so'mlik sarmoya ajratildi. Natijada ustaxonamiz faoliyati yanada kengaydi.

Mahalla hududida ishlab chiqarish korxonalari yo'q. Lekin tomorqadan foydalanishda o'ziga xos tajriba to'plangan. Mahallaning "o'sish nuqtasi" — ko'katchilik. Bu yerda sarxil meva va gul ko'chatlari yetishtirishda o'ziga xos an'ana, tajribalar bor. Har bir xonadonda sarxil ko'chatlar yetishtirildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, "Yashil makon" umummilliy loyihasining bahor va kuz mavsumida bu yerda 3 million tupdan ortiq mevali va manzarali, 1,5 million tup atirgul ko'chatlari yetishtirildi. Mahallada "Qoraqum ko'chatlari" kooperatsiyasi tashkil etilgan.

— Asosan, mavsumiy ko'chatlar yetishtirib kelamiz, — deydi Sirojiddin Abdug'aniyev. — Kuzgi ko'chatdan 150 million so'm daromad oldik. Ayni kunda erta ko'klam hozirligini

ko'ryapmiz. Xonadonimiz tomorqasida yil bo'yi mavsumiy ko'chatlar yetishtiramiz. Ichki bozordan tashqari xorijga ham mahsulot yetkazib beryapmiz. Bu daromadimiz salmog'ini oshirmoqda. Xonadonimizdagi tinchlik-totuvlik, to'kin dasturxon ana shu mehnat va izlanishlarimiz samarasi.

— Qishlog'imizga suv kelishini uzoq yillar orzu qilganmiz, — deydi mehnat faxriysi Ikromjon Oxunov. — Shu kunga qadar boshqa hududlardan tashib kelganmiz. Bunyodkorlik, obodonchilik ishlari jarayonida 2 ta quduq qazilib suv chiqarildi. Bu har bir xonadonni toza ichimlik suv bilan ta'minladi. Shuningdek, 8,5 kilometr ichki yo'llarni asfaltlash, qo'shimcha elektr transformatorlari o'rnatish bilan bog'liq ishlar ham olib borilmoqda.

Mahalla hududidagi xonadonlar ustidan yuqori kuchlanishli elektr tarmog'i o'tgani ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lib kelgan. Elektr tarmog'ini boshqa hududga o'tkazish bo'yicha bildirilgan taklif inobatga olinib, yuqori kuchlanishda ishllovchi tarmoq boshqa xavfsiz hududga ko'chirildi.

— Mamlakatimiz bo'ylab quloqch yo'yan "Obod xonadon", "Obod ko'cha", "Obod mahalla" mezonlari doirasida boshlangan bunyodkorlik ishlari Farg'ona viloyatidagi boshqa mahallalarda ham jam'iyatlik va ko'tarinkilik bilan amalga oshirildi, — deydi viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i Anvarjon Abdullayev. — Shu kunga qadar mahalladagi 42 ta ko'chada "Obod ko'cha" mezonlari joriy etilib, 24,8 kilometr ko'chaga asfalt, 22,9 kilometriga shag'al yotqizilib, piyodalar yo'laklari qurildi. 29,2 kilometr uzunlikda yangi elektr tarmog'i tortildi, 12 ta transformator o'rnatilib, 21 tasi ta'mirlandi. Yaroqsiz holatga kelgan 535 ta simyog'och temir-beton ustunlarga almashtirildi, 604 ta qo'shimcha ustun, tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. Toza ichimlik suv va oqova suv tarmoqlari tortildi, 7 ta suv minorasi o'rnatildi, 3 tasi ta'mirlandi. Chirkay, Pandigon va Qoraqum mahallalarida "Jamoatchilik markazi", "Nuroniylar maskan"lari qurib bitkazildi, "Yoshlar sport maydonchasi" barpo etildi, 460 nafar aholi bandligi ta'minlandi. "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilganlarga 902 million so'm miqdordagi moddiy yordam ko'rsatildi.

Bir so'z bilan aytganda, inson manfaati, baxt-u saodati yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar odamlar hayot tarzini o'zgartirmoqda, bugungi va ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Jurnalist safardan qaytdi

2023-yilda Turkiyaning janubi-sharqiy viloyatlarida kuchli zilzila sodir bo‘lganidan buyon bir yil o‘tdi. Bu vaqt davomida zilzila o‘choqlarida nimalar o‘zgardi? Tabiiy ofatdan jabrlangan va boshpanasiz qolgan qardoshlarimiz bugun qanday hayot kechirmoqda? Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan press-turda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston hamda Shimoliy Kiprda faoliyat yuritayotgan OAV vakillari Qahramonmarash, Adiyaman, Malatya viloyatlarida bo‘lib, vaziyat bilan yaqindan tanishdi.



Bashorat YUNUSOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qahramonmarashda ketma-ket sodir bo‘lgan 7,7 va 7,6 magnitudali zilzilalar butun dunyoni larzaga soldi. Zilzila oqibatida 50 mingdan ziyod kishi halok bo‘ldi. 110 mingga yaqin odam tan jarohati oldi. Bu voqea bir ibrat berdi: qiyinchilik qarshisida o‘z odamlarni birdamlik tuyg‘usi birlashtirar, kuchli qilar ekan.

Qahramonmarash — zilziladan eng ko‘p jabr ko‘rgan hudud

Dasturga ko‘ra, ilk manzilimiz Qahramonmarash bo‘ldi. Istanbul-Qahramonmarash yo‘nalishi bo‘yicha samolyot ko‘kka ko‘tarildi. “Iyi yolduklarki! Istediğiniz bir şey var mı?” dey-di shirsuxan uchoq xizmatchisi xayolimizni bo‘lib. Nafaqat dillarimiz, balki tillarimiz ham naqadar yaqin, deyman hammasi joyida ekanini xizmatchi qizga aytarkanman.

Samolyot bundan oppa-rosa bir yil oldin katta fojia — zilzila sabab katta yo‘qotishlarni boshdan kechirgan Qahramonmarash aeroportiga yaqinlashib, pastlaydi. Ne-ne ming-yilliklarni bag‘riga olib uxlayotgan tog‘lar olisdan qorayib ko‘zga tashlandi. Bizni aeroportda turkiyalik hamkasblar kutib oldi. Ular orasida asli o‘zbekistonlik Zamira O‘zturk ham bor. O‘zga yurtda tanish qiyofani ko‘rsang, ko‘ngling g‘ururga to‘ladi. Darvoqe, Zamira opani sevimli asarlarimiz — “Qutlug‘ qon” hamda “Oltin vodiyan shabadalari” asarlarining turk tiliga tarjimoni sifatida tanymiz. Necha yillardan buyon o‘zbek va turk xalqlari madaniyati hamkorligi va rivoji uchun harakat qilayotgan vatandoshlarimizdan biri.

Viloyat markazi baland-baland uylari bilan e‘tiborimizni tortdi. Zilzila izlari ayrim binolarda sezilsa-da, o‘tgan yili ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rganimiz vahimalar deyarli yo‘q. Demak, hayot davom etyapti, yangi uylar qurilyapti. Aholi farovonligi uchun haqiqiy ma‘noda kurash ketyapti.

Bizni Qahramonmarash viloyati hokimi Mukarram Unlier boshchiligidagi rasmiylar qarshi oldi. Dastlab tabiiy ofatdan ko‘rilgan zarar, zilziladan so‘ng o‘tgan bir yil davomida viloyatda bajarilgan ishlar haqida batafsil ma‘lumot berildi.

Hozir vayron bo‘lgan yoki shikast yetgan binolar sonini aytib, vaqtinigizni olmoqchi emasmiz. Aytmoqchi bo‘lganimiz — bugunga qadar vayron bo‘lgan binolar chiqindilarini tozalash yakunlanibdi. Jiddiy zarar ko‘rgan binolar joylashgan hududda esa salkam 94 foiz chiqindi olib chiqilgan. Yo‘l-yo‘lakay ko‘zingiz devorlariga zarar yetgan yoki yoriqlan binolarga tushmasa, o‘tgan yili bu yerda zilzila bo‘lganiga ishonmayisiz, ochig‘i.

— Afuski, viloyatda vafot etganlar soni juda ko‘p. 12 mingdan ortiq yaqinimiz halok bo‘ldi. Ularning oilasiga va qalakatdan zarar ko‘rganlarga davlatimiz tomonidan tovon puli to‘lab berildi. Qalbimizda jarohatlar katta, biroq taqdirga qadim yo‘q ekan, — deydi Mukarram Unlier.

Ta‘kidlanishicha, tumanlar markazida qurilgan konteyner uylarda salkam 69 ming, qishloq hududlarida esa 66 mingdan ziyod aholi yashamoqda. Ular uchun muqim turar joylar qurilib, foydalanishga topshirish ishlari jadal davom etmoqda.

Qahramonmarash Onado‘lining qadim tarixga ega strategik muhim hududi. Ming

Qahramonmarash Onado‘lining qadim tarixga ega strategik muhim hududi. Ming yillar davomida ko‘plab harbiy qismlar va karvonlar uchun tranzit vazifasini o‘tagan. Rim, Vizantiya, Saljuqiylar, Dulqodirog‘lu va Usmoniylar davridan qolgan yuzlab tarixiy obyektlar mavjud.



QAYG‘U OLDIDAGI BIRDAMLIK KUCHI

“Asr falokati”ni yengayotgan qardoshlarimiz hayoti haqida hikoyalar

yillar davomida ko‘plab harbiy qismlar va karvonlar uchun tranzit vazifasini o‘tagan. Rim, Vizantiya, Saljuqiylar, Dulqodirog‘lu va Usmoniylar davridan qolgan yuzlab tarixiy obyektlar mavjud. Hududda 866 madaniy boylik ro‘yxatga olingan. Ulardan 83 tasi antik davrga oid. O‘rmonga o‘t ketsa, ho‘l-u quruq baravar yonadi. Mazkur tarixiy binolar va yodgorliklarga ham zilzila jiddiy zarar keltirdi.

Qanday hodisa sodir bo‘lmasin, bolalar ta‘limiga e‘tibor birlamchi masala sifatida kun tartibiga chiqadi, muammoni bartaraf etish choralari ko‘riladi. Bu borada mazkur viloyatda qanday ishlar qilinganiga qiziqdik.

— Konteynerli hududlarda tashkil etilgan 10 ta boshlang‘ich va o‘rta maktabda 4514 o‘quvchi ta‘lim olmoqda, — deydi hokimlik mas‘uli Tayfun Temur. — Mazkur hududlarda kutubxona, fan to‘garaklari, qo‘shimcha darslar uchun markazlar faoliyatini boshlagan. Birinchi galda, bolalarning ruhiy holati jiddiy nazoratga olingan. Oilalar bilan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Qahramonmarashda zilziladan so‘ng 5 ta shifoxona qurib bitkazildi.

Uyli odamning o‘yi ketar

Har bir davlatda eng muhim masala aholini turar joy bilan ta‘minlashdir. Turkiyaning zilziladan zarar ko‘rgan hududlarida qurilish-bunyodkorlik ishlari jadallik bilan bajarildi, bu ishlar davom etmoqda. Ayni paytgacha TOKI xalqni uy-joy bilan ta‘minlash boshqarmasi tomonidan viloyatda 21 ming 680 ta xonadon qurib bitkazildi. Fevral oyi boshida mamlakat Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an ishtirokida 9289 ta xonadon kaliti egalarga topshirildi. Bundan tashqari, 192 qishloqda 9262 ta ixcham hovli uy qurilishi yakunlandi. Yil yakuniga qadar yana 30 mingga yaqin uy-joy qurib bitkaziladi. Bu ishlar barcha odam o‘z uyiga ega bo‘lguniga qadar davom ettiriladi.

Shu o‘rinda yana bir muhim ma‘lumot. Qahramonmarash viloyatiga jami 8615 yuk mashinasida gumanitar yordam yuborilgan. Viloyat hokimi O‘zbekistondan kelgan gumanitar yordam va qutqaruvchilar ko‘magi uchun davlatimizga alohida minnatdorlik bildirdi.

Kunning ikkinchi yarmida press-tur ishtirokchilari Qahramonmarashdagi Pazarchik tumanida qurilgan ko‘p qavatli uylardagi shart-sharoitlar bilan tanishdi.

— Zilzila, birinchi galda, aholi turar joylarini sinovdan o‘tkazdi. Biz mustahkam deb o‘ylagan ayrim uylarga ham zarar yetdi. TOKI o‘n yillar davomida sinalgan qurilish tashkiloti bo‘lgani bois, zarar sezilmadi. Endi bundan saboq chiqarib, uylarning mustahkamligi borasida qurilishda eng so‘nggi texnologiyalardan foydalanaymiz. Uylarimiz 5 qavatdan iborat, — deydi TOKI muhandisi Tufan Gumush.

Me‘mor Xaticha Ezgi Reyxanliyg‘uning aytishicha, qad rostlagan har bir uy testidan o‘tkazilyapti.

— Katta oilam bor, — deydi Abdulloh Arik. — To‘rt o‘g‘lim bilan konteyner uyda yashaymiz. Bir o‘g‘lim narigi qishloqda turadi. Biz zilzilaga qadar chorvachilik bilan shug‘ullanganmiz. Qishloq‘imizda ozuqa omborimiz bor edi. Uylarimiz ham, omborimiz ham yiqildi. Butun qolgan bir xonada o‘g‘lim oilasi bilan yashab turibdi. Biz esa bu yerda. Uylarimiz vayron bo‘ldi, qurbon berdik. Biroq hayot davom etyapti. Shunday paytda yengilganimizni nevaralarimiz ko‘rsa, sarosimaga tushib qoladi. Shuning uchun kuchli bo‘lishga majburiym.

Abdulloh amaki ko‘z yoshlarini ortiq yashira olmaydi. Biroq boshiga kelgan sinovlarga qarshi isyon ko‘tarmaydi. Sabr qiladi. Davlat berayotgan non-tuzni oilasi bilan baham ko‘radi. Hademay ular uchun ham uy kaliti topshirilishini aytib, shu kunlarning tezroq kelishidan umidvorligini bildiradi.

— Oyoqlaringizga sog‘liq, bizdan hol so‘rash uchun O‘zbekistondan kelibsisz, — deya so‘z boshladi ko‘la xola. — Boshimizdan og‘ir kunlar kechdi. Uymiz kunpuyakun bo‘ldi. Farzandlarim, turmush o‘rtog‘im halok bo‘ldi. Ikki o‘g‘lim va bir qizim bilan omon



qoldik. Mashinada jon saqladik. Bizga dastlab Pinarboshi mahallasidan chodir berildi, so‘ng konteyner uylarga ko‘chib o‘tdik.

Do‘na xola pensiyada ekan. Nevaralari bilan ovunib, hayoti o‘tyapti. Boshidan shuncha musibat o‘tganiga qaramay, ko‘nglimizni ko‘taradi: “Turkiyadan xursand keting, hali bu kunlarni ko‘rmaganday bo‘lib ketamiz!”.

Yaqinda zilzilaga bag‘ishlangan kitob chop etildi. Unda keltirilishicha, mamlakat Alp-Himolay kamarida joylashgan bo‘lib, Risk Management Index 2024 (INFORM) ga ko‘ra, Turkiya 191 davlat orasida xavflilik darajasi bo‘yicha 40-o‘rinni band etgan. Zilzila bilan bog‘liq xatar indeksi esa 9,3 bo‘lib, bu mamlakatning eng yuqori xavf darajasiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Hasan amakining omonati: O‘zbekistonga salomlarim bor...

Adiyaman Turkiyaning janubi-sharqida, Oq dengiz sohilida qad rostlagan viloyat. Hudud boy tarixi va madaniyati, hayratomuz manzaralari bilan tanilgan. 2150 metrli Nemrut tog‘i qadimiy ulkan tosh haykallari bilan dong taratgan. Bundan tashqari, Otaturk to‘g‘oni ham mashhur. Birechik arxeologik muzeyi esa sayyohlarni hamisha o‘ziga jalb etib kelgan. Adiyaman qal‘asi o‘rta asrlardan hikoyalar so‘zlaydi.

Sayyohlar e‘tiboridagi mazkur hudud ham zilzila ofatlarini boshdan kechirdi. Viloyat hokimligida o‘tkazilgan matbuot anjumanida qayd etilishicha, Adiyaman zilzila zonasidagi barcha shaharlar orasida sug‘urtalanganlar soni bo‘yicha yo‘qotishlarni eng tez bartaraf etayotgan hudud. Bu yerda 2798 xonadon egalariiga topshirilibdi.

Oqpinar qishlog‘i. Adiyaman markazidan 37 kilometr uzoqlikda, keng dalalar qo‘nyida joylashgan bu qishloqda yangi turar joylar barpo etilibdi. Har biri 125 kvadrat metrli xonadonlarga oilalar bosqichma-bosqich ko‘chib keladi.

— Mamlakatimizda boshpanasiz qolgan yurtodoshlarimizning har biri taqdiri biz uchun muhim, — deydi viloyat hokimi Oman Varol. — Zilziladan jabr ko‘rgan oilalarga uylar topshirilishi boshlandi. Dastlab ularning oilaviy sharoiti o‘rganildi, eng ko‘p jabr ko‘rganlar ro‘yxati tuzilib, shunga ko‘ra, qur‘a tashlash yo‘li bilan aniqlab olindi. Shunday oilalarimiz bor, ularning uyi ikki yoki uchta. Deylik, zilzila tufayli ulardan biri buzilib, biri omon qoldi. Bunday oilalarga hozircha vaziyat tushuntirilib, birinchi navbatda, uysiz fuqarolarga e‘tibor berilyapti. Yana bir muhim jihat. Hovlisi buzilgan, biroq o‘zi uy tiklab olishni istagan yurtodoshlarimiz ham yo‘q emas. Ularga ikki yillik imtiyozli davr bilan 18 yilga foizsiz kredit ajratiladi. Bunda uy ko‘tarilishi mo‘ljallangan joy mustahkamligi o‘rganiladi.

Yangi uy sohiblaridan biri Hasan amakini subhatga tortdik. — Zilzila bo‘lgan kechani yaxshi xotirlayman, — deydi Hasan Gench. — Uy shiddat bilan silkinayotganidan uyg‘onib ketdim. Xonimim (turmush o‘rtog‘im) allaqachon shahardan mehmonga kelgan nevaramning xonasiga kirib ketgan edi. Men

ham farzandimning bizga omonatini saqlab qolish uchun o‘sha xona tomon yugurdim. Biroq zilzila kuchliligidan yura olmadim. Kompyuter stoli turardi, uning tagiga kirdim. Biroq vaziyat muvozanat saqlab turishli emasdi. Birdan og‘iz-burnim changga to‘ldi. Tushundimki, uymiz yiqildi. Bir ozdan so‘ng o‘zimni tashqarida ko‘rdim, meni qutqarishgandi. O‘tarkannan, tuproqlar tagida qolgan bir juft oyoqni ko‘rdim. Ko‘zlarimga yosh to‘ldi. O‘sha lahzada bu oyoqlarning nega teskari turgani xayolmdan o‘tdi. Bilsak, xonimim nevaramizni qutqarib qolish uchun uni devordan pana qilgan ekan. Afuski, ularning ikkisi ham tuproq ostida qolib halok bo‘ldi.

Hasan amaki O‘zbekistondan kelganimizni bilgach, Samarqand-u Buxoro haqida o‘qiganini, bu qadim shaharlarni ziyorat qilish orzusi ekanini bildirdi. Ota yurtga ko‘pdan ko‘p salomlar yubordi. Gap orasida Orol dengizining qurib borayotganidan xavotirini ham yashirmadi.

Yana bir subhatdoshimiz — Shabnam. U litsey bitiruvchisi.

— Zilzilaga qadar 11 qavatli uyda yashaganmiz. Yer qimirlagandagi qo‘rquv hanuz ko‘z oldimda. Yaqinlarimni,



do‘stlarimni yo‘qotdim. Biroq vaqt o‘tyapti. Yashashga majburiymiz. Yangi xonadonlardan biri, shukrki, qur‘a tashlash jarayonida bizga nasib etdi. Dadam bilan shu uyni ko‘rishga keldik. Xonalar yorug‘, zamonaviy. To‘g‘risi, zilziladan so‘ng yurak hovuchlab qolgandik. Uylarning kamqavat ekani bir oz bo‘lsin, xavotirimizni bosyapti, — deydi u.

Hali Turkiyada ekanmiz, Adiyaman-daligimni bilgan dugonam quyidagicha xabar yubordi: “Shaharda bir talabam halok bo‘ldi. Zilzilada. Ismi Idris edi. Adiyamanga ketganigizni o‘qib, dardim yangilandi, yuragim zirilladi”. Idris Xitoy Markaziy millatlar universitetida tahsil olgan ekan. Dugonamga hamdardlik bildirdim. Bir shaharning nomi bir inson qalbid qanchadan-qancha xotiralarni uyg‘otishi mumkin...

Viloyat hokimi Osman Varolning ta‘kidlashicha, hududda zilzila vaqtda yarim qulagan, biroq shu vaqtgacha yiqitilmagan binolar bor. Ularning hozirgacha bu holatda turishining asosiy sababi davom etayotgan tergov ishlari bilan bog‘liq. Sud qaroridan so‘ng mazkur binolarning ham taqdiri aniq bo‘ladi. Zilzila adiyamanlik 8500 ga yaqin kishini hayotdan olib ketdi. 17 mingga yaqin odam jarohatlandi.

Konteyner maktablarda Beruniy va Xorazmiy bobolarimiz izdoshlarini uchratdik

Adiyaman viloyatida ham ruhiy jihatdan og‘ir ahvolga tushib qolgan aholi uchun konteynerlarda tibbiy va psixologik maskanlar, bolalar uchun sport va o‘yin maydonchalari, ayollarni kasbga yo‘naltirishni ko‘zda tutuvchi markazlar, kutubxonalar, do‘konlar, tibbiyot punkti ishlab turibdi. Bog‘cha va umumta‘lim maktablari bolalar bilan gavjum.

Viloyatdagi vaqtinchalik yashash markazida 1500 ta konteyner joylashgan. Ularda 3500 ga yaqin qardoshimiz hayot kechirmoqda.

— Zilzila xalqimizga katta ruhiy zarba berdi. Biz buni sport bilan shug‘ullanib, yengishga harakat qilaymiz. Ayni paytda xotin-qizlarning soni 70 dan ortib ketdi. Erkaklar ancha ko‘p. Mashg‘ulot qatnashchilarining yoshi farqli, shuning uchun ularni guruhlashtirganmiz. Ahamiyatlisi, zilzila payti ko‘li, oyog‘i yoki tanasining boshqa a‘zosi zararlangan yurtodoshlarimiz bor. Bular uchun ham maxsus mashg‘ulotlar o‘tiladi. Sog‘lig‘ini tiklash uchun mutaxassis-trener jalb etilgan, — deydi sport murabbiyi.

Umumta‘lim maktabi o‘quvchilari uchun ochilgan texnologik bilimlar markazi o‘quvchilar bilan gavjum. Bu yerda astronomiya, matematika, fizika kabi aniq va tabiiy fanlar o‘qitiladi. Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Beshta maxsus xona mavjud bo‘lib, ularning har biri farqli. Bolalar o‘zi qiziqqan yo‘nalish bo‘yicha mashg‘ulotlarda ishtirok etadi.

— Bu xonada kelajakka o‘z imzosini qo‘ya oladigan buyuk kashfiyotchilar o‘tirganiga shubhamiz yo‘q, — deydi Adiyaman viloyati hokimi o‘rinbosari Mehmet Tig‘li.

Markaz rahbari Muhammad Furqonning ta‘kidicha, markaz kichkina joyda faoliyat yuritayotganiga qaramay, katta tadbirlarga

kutubxonasida viloyat hokimi Ersin Yazichi ishtirokida jurnalistlar bilan muloqot tashkil etildi. Hokim qardosh xalqlar matbuot xodimlari bilan muloqot qilayotganidan mamnunligini bildirdi. Uning aytishicha, boshqa hududlarga qaraganda Malatyada yo‘qotishlari nisbatan kamroq bo‘ldi. Chunki aholi ikkinchi to‘lqindan ogohlantirilgan. To‘g‘ri, binolar zarar ko‘rgan, biroq gap tiriklik haqida ketar ekan, moddiyatning ahamiyati shu yerda yo‘qoladi.

Ta‘kidlanishicha, shifoxona va klinikalar zarar ko‘rmagan, ular muntazam ishlab turibdi. Zilziladan aziyat chekkan fuqarolarga har oy nafaqa ajratilmoqda. Hokim Malatyada hayot qaynayotganini, ko‘p o‘tmay bu yerni tark etib ketganlar yana ona tuproqqa qaytishiga umid bildirdi.

Battolg‘ozi tumanidagi Gelinjektapa mahallasida qurilgan ko‘p qavatli uylar malatyaliklarga foydalanishga topshirilmoqda. 35 uyda 726 ta xonadon joylashgan. Aniq va puxta reja asosida qad rostlagan mazkur uylar kirib yashashga tayyor qilib ta‘mirlangan.

— O‘tgan yili zilziladan so‘ng chuqur ruhiy bosim ostida edim. Bu og‘ir vaziyat universitet imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rishimga yo‘l bermadi, — deydi Oysha Og‘zikuchuk. — 18 yoshdaman. Universitet imtihonlariga tayyorgarlik ko‘ryapman. Zilziladan so‘ng og‘ir kunlarni yashadik. Bizning mahallamizda vayronagarchiliklar ko‘p bo‘lmadi, shukur. Biroq uylarimizga qaytishga qo‘rdik, ukularim kichkina edi. Hovliga keldik. Nonshta qilayotganimizda, birdan ikkinchi zilzila sodir bo‘ldi. Birinchisini shiddatli bo‘ldi deyaptilar, men uchun ikkinchi kuchli va qo‘rqinchli edi. Tuproq ostida qolganlar haqida o‘ylagim, eslagim kelmaydi. Qolganlarning joni sog‘ bo‘lsin. Hademay uylarimizga qaytamiz. Buni o‘ylasam, quvonaman.

Erta ulg‘aygan bolalik

Qanday falokat yoki ofat sodir bo‘lmasin, hatto yengil musibat ham bolalarning hayotida chuqur iz qoldiradi. Ularning nozik ruhiyatiga soya soladi. Shu kabi zilzilalar ham turkiyalik bolalarni erta ulg‘aytiradi. Ularning gap biri bilan subhatlashmang, ko‘pni ko‘rgan odamdek fikrlaydi. Ehtimol, musibat ko‘rgan boshlar shunday bo‘lar!?

— Zilzila bo‘lgan kunni yaxshi xotirlayman. Afshin tumanida yashar edik. Tunda zilzila bo‘ldi. Sahar Go‘ksunga — qarindosh-larimiznikiga yo‘l oldik. Biroq u yerda kunduzi yana zilzilaga bo‘ldi. Do‘stlarim va sevimli ustozlarimning bir qanchasidan ayrildim. Eng yaqin dugonam Emine ham zilzila ostida qolib halok bo‘ldi. Uni unutmaly qiyналaman, — deydi 10 yoshli Zaynab.

Darvoqe, men Zaynab va uning dugonasi Muzayyanni konteyner kutubxonada uchratdim. Qizaloqlar darsdan so‘ng har kuni bu yerga kelarkan. Ularning aytishicha, kutubxonada dars qilishga sharoit bor. Kitoblar yetarli, mavzuga tushunmasa, kutubxonachi opalari va uning yordamchisi ko‘makka shay. Uyda kichkina bolalar ko‘p bo‘lgani uchun shu yerga kelib dars qilish tinchoq.

Zaynabning hikoyasini Muzayyan davom ettiradi:

— O‘sha tong uymiz xuddi halinchak kabi sollanardi. Juda qo‘rqib ketdim. Ukam chaqaloq edi. Bunday vaziyatda qochishning imkoni yo‘q edi. Kun juda sovuq, qaltirar edik. Biz mashinada jon saqladik. Buvimlamikiga ketdik. Ularning ham uyi buzilgan, biroq omon qolishgan. Tongga qadar mashinada o‘tirdik. So‘ng dadam taxtalardan chodir tikladi. So‘ri qurib, o‘sha yerda kun o‘tkazdik. Butun oilamiz kichkina chodirda edi. Bir necha qarindoshimiz o‘ldi, biz chodirda yasharkan, ota-onam jasadni topilmayotgan yaqinlarimizga qida qayg‘urardi. Ular meni bola deb o‘ylab, past ovozda so‘zlashsa-da, bu voqealarning barchasini tushunib turardim. Hatto sovuq jonimdan o‘tib ketsa-da, miq etmasdim, chunki tirik qolganimizning o‘zi yetarli edi. So‘ng bu konteyner uylarga ko‘chdik.

Beraat 9 yoshda. Bolakay 4-sinfda o‘qiydi. Rasm chizishga qiziqadi. “Zilzila bizni ulg‘aytirib qo‘ydi. Avval kattalar bizga boladay muomala qilgan bo‘lsa, endi xuddi o‘z tengdoshlaridek gaplashadi biz bilan”, deydi u. Darvoqe, Beraat u bilan suratga tushishimni so‘radi. U bilan subhatimiz cho‘zilgandan cho‘zildi. Yorug‘ kelajagidan, orzularidan, oldiga qo‘ygan maqsadlaridan so‘z ochdi. Bir bola so‘zidagi samimiyat, ko‘zidagi kelajakka bo‘lgan ishonchdan quvondim, rosti.

Bu bolalardan tashqari, Ejrin va Esir ismli qizlar bilan tanishdik. Qizlarning biri Adiyaman viloyatining Dilek qishloq‘idan kelgan, biri shu yerlik — malatyalik. Ular raqs to‘garagida xalq o‘yinlarini o‘rganayotgan ekan. Qizlar bilan bir safda bolalar ham bor edi. Bolalarni bu yerga bir ofat — zilzila olib kelgan bo‘lsa, odamiyluk va birdamlik tuyg‘usi ularni bir-biriga do‘st, og‘a-ini, opa-singil qilgan. Bu tuyg‘u esa har qanday qiyinchilikni yengib o‘tishga qodir.

Toshkent — Qahramonmarash — Adiyaman — Malatya — Toshkent

Odamlar orasida

BUGUN YURTGA FIDOYILAR KERAK



Muqaddas ABDUSAMATOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Mustaqillik e'lon qilingan paytda xuddi shunday tuyg'u ko'nglimdan kechgan. Prezidentimiz tomonidan 2017-yilda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida "Besh muhim tashabbus" e'lon qilinganida ham ko'nglim o'zgacha zavqqa to'lgandi. Boisi, xalqimiz, ayniqsa, kelajagimiz bo'lgan yoshlar, o'g'il-qizlarimiz besh fazilatni o'zida mujassam etsa, yurtga fidoyi bo'lib voyaga yetadi.

O'tgan yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimizning "O'zimizga bir savol berib ko'raylik: Biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi?", degan so'zi diyonatli, imonli, vijdonli, g'ururli har qanday odam ko'nglini qalqitdi. Nafaqat qalqitdi, o'ylantirib ham qo'ydi.

O'sha lahza erishilayotgan yutuqlar bir-bir ko'z oldimdan o'tgani tayin: xalqaro munosabatlar, investitsiyalarga yo'l ochilgani, adabiyotni rivojlantirish uchun qilinayotgan chek-chegarasiz ishlar, Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining ko'rkam binosi, yangi ijod uylari... Yozuvchilar uyushmasi faoliyati moddiy qo'llab-quvvatlayapti, yoshlarning ilk kitoblari nashr etilyapti, atoqli ijodkorlarning tavallud sanalari keng nishonlanayapti. Bularning bari egzu niyatli, yuragi Vatan deb uradigan har qanday kishini zavqlantiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonga hissa qo'shish istagini paydo qiladi.

Shunday xayollar bilan o'tirgandim, Yozuvchilar uyushmasidan qo'ng'iroq bo'ldi. Madaniy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish maqsadida qo'yilgan vazifalarni targ'ib etuvchi guruh tarkibida ekanimni aytishdi. "Yangi hayot



uchun — yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida "Mahallada duv-duv gap" tadbiri barcha tuman mahallalarida boshlandi. Kamina Mirzo Ulug'bek tumanidagi tadbirlarga birlashtirildim. Ko'nglim ko'tarildi. Qo'yilayotgan vazifalarni bajarishga zararcha bo'lsa ham hissa qo'shish bizning yoshimizda katta baxt, axir. Shuningdek, bu vazifani bajarish ham mas'uliyatli, ham sharaflidir. Shu bois, davlatimiz rahbarining Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi ma'ruzasini yana bir karra o'qib chiqdim. Undagi "Hamamimiz bir haqiqatni unutmashimizni istardim. Hayot bor ekan, jaholat ham, ma'naviy tahdidlar bo'lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi yurt kelajagiga loqaydlik, egzu qadriyatlariga nisbatan

Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat til sifatidagi nufuzini oshirish yuzasidan vazifalar ham quvonarli, bir paytning o'zida sharaflidir. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari maosini oshirish, kelgusi yildan boshlab 50 foiz ustama to'lanishi, o'qitish jarayonida xalq og'zaki ijodiy targ'ibotiga ahamiyat qaratish haqida so'z ketganda, tadbirlarga yig'ilganlar har safar qarsak chalib olqishladi.

Tumanda haqiqiy diydorlashuv, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar qizg'in tus oldi. Quvonarlisi, aholi orasida befarqlik, loqaydlik illatlari sezilarli darajada kamaygan. Demak, odamlar yurt siyosati bilan hamnafas, ortda qolmaslikka urinyapti, chehrasida rizolik alomati zohir.

Nuqtayi nazar

Biz mard, tanti, muhimi, el-yurt qayg'usi bilan yashaydigan insonlarni Alpomishga mengzaymiz. Xo'sh, Hakimbek ismli bola qanday qilib Alplik maqomiga erishdi? Gap shundaki, alplik ham jismonan, ham ruhan kamolotga yetish bilan belgilanadi. Ya'ni alplik komil inson tushunchasining muqobilidir. Shu bois, Hakimbek yetti yoshgacha barcha ilmlarni o'zlashtirdi. So'ng jismoniy mashqlar bajarishga o'tdi. Alp bobosidan meros qolgan va hali hech kim ko'tara olmagan voydan o'q uzdi. Shu tariqa Hakimbek ilm o'rganib, jismonan chiniqib, ajdodlar merosiga munosib avlod — Alpga aylandi.

MILLIY G'URUR — VATANGA MUHABBAT HOSILASI

Ajdodlar zakosidan saboq beradigan ushbu dostonda komil inson tarbiyasida ilm-ma'rifat birinchi o'ringa qo'yilgan. Shu nuqtayi nazardan, bugun mamlakatimizda har jihatdan yetuk avlodni kamol toptirish siyosati yuritilayotgani bejiz emas. Bu siyosatning tag zamirida ajdodlar yurgan yo'ldan og'ishmay ketayotganimizni ko'rish mumkin.

Xo'sh, komil inson mezonlariga mos keladigan avlodni tarbiya qilish uchun nimalarga e'tibor berish zarur? Ta'kidlanganidek, avvalo, yoshlar ilmi, jismonan baquvvat bo'lmog'i kerak. Bunday yoshlar el-yurtga naf keltiradigan kuchga aylanishi uchun esa ular qalbida milliy g'urur tuyg'usi shakllanishi shart.

Bu o'rinda milliy g'urur nima, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda taxminan 5-sinfda o'qiydigan o'quvchi bilan bog'liq lavha tarqaldi. Unda o'quvchi ustozining savoliga javob berib, otasi mashina tuzatadigan usta, onasi uy bekasi ekanini aytadi. Sinfdoshlari uni mazax qilib kuladi, bolaning ko'ziga yosh keladi. Ammo boshini tik tutib, ota-onam bilan faxrlanaman, deydi. Uning mana shu gapi milliy g'ururning hayotiy ifodasidir. Milliy g'ururi bor inson o'sha bola kabi yot qarashdagi odamlar orasida, tang ahvolda yolg'iz qolsa-da, boshini tik tutib oilasi, vatani, millati sha'nini himoya qila oladi.

Barcha davrlarda mafkuraviy hujum eng xatarli kurash hisoblangan. Tarixiy kitoblarda mustahkam qal'alar dushmanga ichkaridan ochib berilgani haqida ko'p o'qiganmiz. Masalan, Buyuk Xitoy devori bilan bog'liq asotirlarda, devor tiklangach ham bir necha bor g'animlar hujum qilib ichkariga kirgani, shundan so'ng imperator vatanni ulkan devor emas, yurtsevar odamlar himoya qilarg ekan, degan xulosaga kelgani aytiladi.

Bugun esa mafkuraviy kurash ko'lami juda kengaydi. Globallashuv sabab uydan chiqmay, dunyoning istalgan nuqtasidagi insonni yo'ldan og'dirish mumkin bo'lib qoldi. Tahliliali zamonda milliy g'urur ko'zga ko'rinmas xurujlarga qarshi eng samarali himoyadir. Negaki, milliy g'ururi baland insongina vatanparvar bo'la oladi. Yurtsevarlik esa eng yaxshi mafkuraviy immunitetdir. Bunday yoshlar nafaqat o'zini tashqi hujumlardan himoya qiladi, balki yo'ldan adashishi mumkin bo'lgan tengdoshlarini ham ortidan ergashtiradi.

Boybo'ri o'g'li Hakimbekni ilm olishga beradi. Dostonning shu joyida nihoyatda nozik ishora bor. Boybo'ri Hakimbekka saboq berdi deyilmaydi. O'qib-o'rganish yetarli bo'ldi. Endi saltanat ishlarni o'rgansin deya kurash, kamondan o'q otishni o'rgatish uchun olib keldi, deyiladi. Demak, dastlab Alpomishga ta'lim-tarbiyani ustozlar o'rgatayapti. Keyin u otasining ko'z o'ngida jismoniy mashq qilyapti. Buni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' ajdodlarimiz misolida ham ko'rish mumkin. Ular ham go'dakligidan ustozlar qo'lida ta'lim-tarbiya olgan.

Yangi O'zbekistonda ta'limga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'qituvchining nufuzini oshirish borasidagi ishlarni e'tirof etish kerak. Shu o'rinda o'qituvchining o'quvchiga beradigan tarbiyasi haqida ham jiddiy o'ylab ko'rish shart. Jamiyatimizda qush uyasida ko'rganini qiladi, deya tarbiyani oilaning o'ziga tashlab bo'q'ish odati tusiga aylanmoqda. Shu qarash soyasida bir bolaga yetti mahalla ota-ona, degan tamoyilni yo'qotib boryapmiz.

Ko'chada birorta odobsiz o'quvchiga duch kelsak, bironing bolasi deb, ko'z yumamiz. Farzandimiz tarbiyasizligi yoki yaxshi o'qimagani uchun o'qituvchi qulog'ini cho'zsa, ayuhannos solamiz, butun maktab oldida uni sazoyi qilamiz. Vaholanki, bolamizga sen xato qilgansan deya dakkli berib, unga sezdimasdan qattiqqo'l o'qituvchidan bolani urmasligini talab qilsa bo'ladi. Biz esa bilib-bilmay omma

oldida o'qituvchi obro'sini to'kamiz. Shu orqali farzandimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazayotganimizni o'zimiz ham bilmaymiz.

O'tgan yili o'g'lim maktab hovlisida sinfdoshlari bilan ko'chat ekanini aytib, "Bizni ishlatish mumkin emas-a?!" dedi. Birdan hushyor tortdim. O'g'limga maktab hovlisidagi obodonlashtirish ishlari hashar ekanini, unda hamma qatnashishi zarurligini aytdim. Ammo dilim hufton bo'ldi, qayerda xato qildim?! Ehtimol, qachondir uning o'qituvchilariga nopisand muomalada bo'lgandirman. Lekin bitta men qiladigan xato butun jamiyatda takrorlanishi kerak emas. Axir omma hal qiluvchi kuchga ega. Biz esa kim haq ekanini, holatga qanday huquqiy baho berilganidan qat'i nazar, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlarni ommaviy muhokama qilyapmiz.

Axir bu ustozlar obro'siga putur yetkazadi. Bola hayotidagi muhim shaxs, ustozini hurmat qilmasa, asta-sekin do'stlariga, yaqinlariga bo'lgan munosabati ham o'zgarib boradi. Chunki uning tarbiyasi mukammal bo'lmaydi. Odob qoidalariga to'liq amal qilmaslik uning axloq o'zgarishiga olib keladi. Bunday yoshlar ongiga milliy g'ururni singdirish oson emas. Negaki, axloq — o'q'ildiz. Daraxtning kasalligi uning ildizi, tanasida boshlanadi. Ammo xastalik alomati eng tepa bavlarda



namoyon bo'ladi. Axloq normalari ham xuddi shunday. Dastlab uning ildiziga bolta uriladi. Bu zarbaning kuchi esa endigina tetapoya bo'layotgan yoshlar hayotida ko'rinadi. Xuddi daraxt uchidagi barglar kabi.

Demogichimizki, bola ustozini hurmat qilsa, ota-onasining gapiga quloq tutadi. Do'stlarini, yon-atrofda qilgani tinglash ko'nikmasini o'zlashtiradi. Axloqi yaxshi bolaga nasihat kor qiladi. Unga internetdan to'g'ri foydalanishni ham, bilim olish zarurligini ham uqitira olasiz. Shu bois, jamiyatimizda bir bolaga yetti mahalla ota-ona, degan qarashni keng yoyish zarur. Bu qarash nafaqat befarqlikka barham beradi, balki insonlar orasida o'zaro hurmat, mehr kabi tuyg'ular kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shu o'rinda bir mulohaza. Biz vatanparvarlik deganda yurtning bayrog'ini baland tutishni, olamshumul ishlarni bajarishni tasavvur etamiz. Aslida, qo'lidagi chiqindini o'z joyiga tashlab ham, ayvobusda yoshi ulug'lariga salom berib yot bo'shatish ham yurtsevarlikdir. Negaki, yurt chegarasidagi jami insonlar, tiriklik olami jamlanib, VATAN qiyofasini kasb etadi. Ulardan birini ikkinchisidan ajratib olib yaxshi ko'rib bo'lmaydi!

Darhaqiqat, o'zaro mehr, tushunish tuyg'ulari inson hayotini tubdan o'zgartirishga qodir. "Alpomish" dostonidan yana bir misol keltirsak. Qorajon Alpomishni olib kelish uchun Qalmoqqa borganida oshiq o'ynayotgan bolalarga duch keladi. Bitta bola boshqalardan ayrilib, yig'lab o'tirganini ko'rib, undan

hol so'raydi. Boshqa bolalar uni yakkalab, oshiqlarini olib qo'rgan edi. Shunda Qorajon boladan Alpomish qayerda ekanini so'raydi. U Alpomish yotgan chohning qayerdaligini aytgan odamni Qalmoq shohi jazolashini aytadi. Qorajon tengdoshlari ayirib qo'rgan yetim bolaga oshiqlarini qayratib olib beradi. Buning evaziga u chohning qayerda ekanini aytadi.

Qalmoq yurt uchun muhim strategik obyektlar hisoblangan chohning qayerda ekanini aytgan bola yetim edi. Demak, u qarovsiz, mehrsiz. Ayni paytda jamiyat — tengdoshlari uni qabul qilmaydi. Nopisand qarab ustidan kuladi. Oqibat, yetim bolada nafrat kuchayadi. Bu esa milliy g'ururning sinishiga olib keladi. Illo, milliy g'urur, insonning insoniga, butun olamga bo'lgan muhabbati hosilasidir.

Yangi O'zbekistonda barpo etish tashabbusi ilgari surilgach, ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor berildi. Hatto bosh qonunimizga O'zbekiston — ijtimoiy davlat, degan tushuncha kiritildi. Kambag'allikni qisqartirish uchun mas'ul vazirlik tashkil etildi.

Qolaversa, deyarli barcha yig'ilishlarda Prezidentimiz mazkur masalani kun tartibiga qo'yadi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Ijtimoiy himoyadan to'g'ri foydalana olyapmizmi? U haqiqiy muhtojlarga yetib boryaptimi?



Shu bois, Prezidentimiz joriy yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratish kerak, degan g'oyani ilgari surdi. Bu g'oya hayotiy zarurat tufayli yuzaga keldi. Chetdan qilinadigan mafkuraviy xurujlar barchamizga ayon. Bu borada muttasil ta'sir choralari ko'rib borilyapti. Ammo bu yetarli emas. Masalan, bitta xabarni ommaga ulashsangiz, aksariyat odamlar masalaning faqat salbiy jihatiga urg'u beradi. Negaki, milliy media makonimizda axborotni tanqidiy taqdim etish odat tusiga aylandi. Albatta, mamlakat taraqqiyoti uchun tanqidiy, tahliliy fikrlar zarur. So'z erkinligining birlamchi talabi ham shu. Ammo so'z erkinligi og'ziga kelgan gapni aytish emas, aytilishi shart bo'lgan fikrni bildirga olishdir. Milliy kontentning ahamiyati mana shu joyda seziladi.

Xalqimizda ko'raversa ko'z ko'nikar, degan naql bor. Bu bejiz aytilmagan. Bizga taqdim etilayotgan xabarlarining katta qismi, qonunbuzarlik, jinoyo ishlar bilan bog'liq. Bunday xabarlar jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun kerak. Lekin xabarning o'zi bilan kifoyalanish xato. Zero, omma iste'molchi, unga bunday axborotni tahlil qilib yetkazish lozim. Tahlilga muhtoj axborotning xabar tarzida berilishi esa salbiy tusda qabul qilinishi tabiiy.

Ong salbiy axborotga to'yina borsa, odam pessimist, jahldor bo'lib qoladi. Jamiyatda shunday illat ildiz otmasligi uchun milliy kontent suv va havoday zarur. Nazarimda, milliy kontent keng ko'lamli tushuncha. Uni faqat ijtimoiy tarmoqlar yoki OAV bilan bog'lash xato. Aslida, qo'shni bolaning qilg'i uchun dakkli berish ham, o'qituvchisidan hafa bo'lgan farzandingizga to'g'ri tushuncha berish ham milliy kontent. Demak, uni yaratishda har bir ongli fuqaro qatnashishi kerak.

Milliy g'urur o'zlikni anglash va faxrlanish ekan, uni shakllantirishda milliy kontentning ahamiyati beqiyos. Binobarin, ma'naviyat va ma'rifat targ'iboti faqat ommaviy tadbirlardan iborat bo'lib qolmasligi kerak.

Masalan, mahallalarda yetti yoshdan yetimish yoshgacha bo'lganlarni jamlab, ijodiy klublar tashkil etish mumkin. Buning uchun Qoraqalpog'iston yoki o'lis voha mahallalariga poytaxtdan targ'ibotchilar borishi ham shart emas. Mahalla ahli yig'ilib, o'qigan kitobini muhokama qilsa, o'zlari yashayotgan hudud, ajdodlar tarixi haqida suhbatlar qursa, yetarli. O'yin-kulgi emas, odamlar suhbatlashadigan muhit yaratilsa, Navoiyxonlik, Boburxonlik kechalari tashkil etilsa. Bu mahalladoshlar bir-birining ko'ziga qarab guraladigan davraga aylanardi.

Kunduz ish, kechki payt televizor va telefon bilan band ota-onalar o'sha yerda bolasining so'zini tinglasa, ajab emas. Bunday davrada yuqoridagi aytganimiz kabi o'zaro hurmat, mehr hissi yanada kuchayadi. Ehtimol, bu eng samarali milliy kontentlardan biri bo'lar. Negaki, u bevosita milliy g'ururni, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boboravshan G'OMZIDDINOV,
journalist